

J.K. Rowling, Jon Tiffani,
Jek Torn



GARRIPOTTER
va La'natlangan Bola

@GARRIPOTTER8

**J.K. Rouling, Jon Tiffani,
Jek Torn**

**GARRI POTTER
VA LA'NATLANGAN BOLA**

**PYESA
II QISM**

TARJIMON: Yulduz Boymatova

@GARRIPOTTER8

@Dumbledore_army01

IKKINCHI QISM

UCHINCHI AKT, BIRINCHI PARDA.

XOGVARTS, DIREKTOR XONASI.

SKORPIUS Doloris Ambrijning xonasiga kirdi. U (Skorpius) juda ham tunde zim ziyo va qora korjoma kiyib olgan edi. Uning ko`rinishi o`ychan. U juda ham kalovlanib hayajonlangan holatda ko`rinardi.

DOLORIS AMBRIJ: Skorpius, rahmat meni ko`rgani kelganing uchun.

SKORPIUS: Direktor xonim.

DOLORIS AMBRIJ: Skorpius, senga ma`lumki, men ko`p vaqtlardan beri senda katta potensial bor deb o`ylayman. Toza qon sexrgar, tug`ma lider, ajoyib sportch i....

SKORPIUS: Sportchi?

DOLORIS AMBRIJ: Hayron bo`ladigan joyi yo`q, Skorpius. Men seni kvidish maydonida ko`rdim: sen tuta olmaydigan yana qandaydir tilla chaqqon borligiga shubxa qilaman. Sen o`z fakultetinga ko`p yutuqlar olib keladigan o`quvchisan. Seni fakulteting seni qadrlaydi xuddiki men kabi. Men Avgureya uchun qilgan oxirgi hisobotimda sen haqingda juda yaxshi tavsifnoma berdim. Bizning maktabdan kuchsiz o`quvchilardan tozalash ishimiz hamkorligimizda Xogvartsni yana ham xavfsiz va bequsur joyga aylantirayapti...

SKORPIUS: Rostdanmi?

Saxnaning yon tomonida baqiriq eshitiladi. Skorpius unga qaraydi. U chalg`ib qoldi. U o`zini nazorat qilishi kerak.

DOLORIS AMBRIJ: Lekin bu uch kun ichida seni Volan-de-Mort kunida ko`l qirg`og`idan topib olganimdan beri juda va juda g`alati tutayapsan o`zingni... Bu barchasi dabdurustdan Garry Potterni shaydosiga aylanish ...

SKORPIUS: Bu unday emas...

DOLORIS AMBRIJ: Sen hammadan Xogvarts uchun jangda Garry Potter qanday va qachon o`lgani haqida so`rabsan. Bu Sedrik Diggorini mayna qiladigan maynabozlik emasmi? Skorpius, biz senga kimdir qarg`ish yo`llagan yoki kimdir seni sexrlab qo`ymaganmikan deb tekshirdik. Lekin hech narsa topa olmadik.

Shuning uchun men senga avvalgi holatingga qaytishingda qandaydir yordam bera olamanmi deb so`ramoqchiman?

SKORPIUS: Yo`q, yo`q. Hammasi joyida deb hisoblayvering. Bu faqat vaqtinchalik telbalik va tamom.

DOLORIS AMBRIJ: Demak, biz sen bilan hamkorligimizni davom ettirishimiz mumkinmi?

SKORPIUS: Albatta.

U (Doloris) qo`lini ko`ksiga yuragi ustiga olib boradi va bilagini unga qo`yadi.

DOLORIS AMBRIJ: Volan-de-Mort nomi va jasorati ila.

SKORPIUS: (takrorlashga harakat qilib) eee ... nomi ila...

UCHINCHI AKT, IKKINCHI PARDA

XOGVARTS, YER OSTIDA

KARL JENKINS: Ey, Chayonlar Qiroli.

Skorpius tisarildi, bu uni ko`nglini ozgina og`ritadi, lekin sezdirmasdan chidaydi.

YAN FREDERIKS: Ertangi tun hali ham kuchidami?

KARL JENKINS: Biz ozgina nopok qonni to`kishga tayyormiz.

POLLY CHAPMAN: Skorpius.

POLLY CHAPMAN zinada turardi. Skorpius uning ismini aytib chaqirganidan hayron bo`lib o`girildi.

SKORPIUS: POLLY CHAPMAN?

POLLY CHAPMAN: Biz sen bilan kelishib olishimiz kerak. Hamma sen kimni taklif qilganingni aytishingi kutayapti. Bilasan sen buni qilishing kerak. Meni uchtasi taklif qildi va men hammasiga rad javobini bergan yagona odam emasligimni bilaman. Agar sen meni taklif qilmoqchi bo`lgan bo`lsang.

SKORPIUS: To`g`ri.

POLLY CHAPMAN: Agar sen xursand bo`lsang hammasi yaxshi. Aytishlaricha bu shunday ham. Men ham sen uchun xursand ekanligimni takrorlashni xoxlardim. Bu umuman mish-mish emas. Bu fakt.

SKORPIUS: Bu albatta ajoyib... lekin biz nima haqida gaplashayapmiz?

POLLY CHAPMAN: Albatta Qonli Bazm haqidada. Sen Chayonlar Qirol Qonli Bazmga kimni taklif qilishing haqidada.

SKORPIUS: Sen Polly Chapman chindan ham men sen bilan birga borishimni xoxlaysanmi?

Ularning ortidan baqiriq eshitildi.

Bu qanday ovoz?

POLLY CHAPMAN: Bu qamoqxonadagi aslzoda bo`lmagan sexrgar bolalarning ovozi. Eslay olasanmi bu sening fikring edi? Senga nima bo`ldi? O Potter mening oyoq kiyimim yana qon bo`ldi...

U sekin egiladi va extiyotkorlik bilan oyoq kiyimidagi qonni artadi.

AVGUREYA aytganiday kelajak bizning qo`limizda shunday ekan men bu yerda sen bilan o`sha kelajakni qurish uchun shu yerdaman. Volan-de-Mort nomi va jasorati ila

SKORPIUS: Volan-de-Mort nomi va hokazolar ila.

Polly ketadi, Skorpius uning ortidan uzoq vaqt fikr yuritib qarab qoladi. Bu qanday dunyo va bu yerda qanday rol o`ynaydi u (Skorpius)?

UCHINCHI AKT, UCHINCHI PARDA

SEXRGARLIK VAZIRLIGI, SEXRGARLIK QONUNLARINI TATBIQ ETISH VAZIRI XONASI

DRAKO tomoshabinlarda chuqur tassurot qoldiradi. Unda haqiqiy kuch seziladi. Saxnaning ikki tomoni ham Avgureyaning ramzi qaysiki fashistik tarzda ifodalangan qush bilan yasatilgan.

DRAKO: Sen kechikding.

SKORPIUS: Bu sizning xonangizmi?

DRAKO: Sen kechikding va bu uchun tushuntirish berishni ham xoxlamaysan. Sen muammoni yana ham chuqurlashtirmoqchimisani deyman.

SKORPIUS: Sexrgarlik qonunlarini tatbiq etish vazirimisiz?

DRAKO: Qanday hadding sig`di? Sen meni isnodga qoldirayapsan, meni kutishga majbur qilayapsan va bu uchun umuman kechirim so`ramayapsan ham!

SKORPIUS: Kechiring

DRAKO: Janob.

SKORPIUS: Kechiring, janob.

DRAKO: Skorpion men seni palpis bo`lishing uchun tarbiyalamayapman. Va meni ismimni Xogvartsda pastga urishing uchun ham.

SKORPIUS: Janob sizni pastga urish?

DRAKO: Garry Potter. Garry Potter va boshqa mayda chuyda narsalarni so`rab. Sen Malfoylar nomini bulg`ashga qanday hadding sig`di?

SKORPIUS: O yo`q. bu... bu barchasini hisobini berishdimi? Yo`q. yo`q. Bo`lishi mumkin emas.

DRAKO: Skorpion....

SKORPIUS: Bugungi kunning "Kunlik Sohibkaromat"i - Uchta afsungar, ko`prikni bir urinishda qancha maglni o`ldirishi mumkinligini bilish uchun portlatish- bu sizning fikringizmi?

DRAKO: Hovliqma.

SKORPIUS: O`lim lagerlari afsungar bo`lmagan bolalar uchun, qiynoqxonalar, unga qarshi bo`lganlarni barchasini tiriklayin yoqish. Bularning hammasidan sizni maqsadingiz nima? Oyim har doim sizni men o`ylaganimdan ko`ra yaxshiroq ekanligingizni aytib kelgan. Lekin aynan bu haqiqiy sizsiz, shunday emasmi? Qotil, azob beruvchi va...

Drako qaddini rosladi va Skorpionni stol ustiga benihoya shavqatsizlik bilan uloqtiradi.

DRAKO: Uning ismini bunday bexudaga tilinga ola ko`rma Skorpion. Bunday yo`l bilan o`zingga ball ishlama. U undan ko`prog`iga loyiq.

Qo`rquvdan Skorpionni tili kalimaga kelmay qoldi va Drako buni ko`rdi. U Skorpionni boshini qo`yib yuboradi. Unga o`z farzandiga og`riq keltirish yoqmaydi.

Yo`q bu axmoqona fikr, magllar haqidagisi, meniki emas. Shunday ekan men Avgureyaning buyrug`i bilan magllarning Bosh Vazirini oltin bilan sotib oldim. Sening onang chindan ham men haqimda shunday deganmidi?

SKORPIUS: Uning aytishicha bobom uni yomon ko`rgan ekan, hattoki juda ham va bobom o`ylagan ekaniki, oyim magllarga yaxshi munosabat bildirgan va juda ham nimjon bo`lgan. Lekin siz uni bobomdan ximoya qilgan ekansiz. Oyim aytishicha bu u ko`rgan juda ham qahramonona qadam bo`lgan.

DRAKO: Oying meni qahramon mard qilib qo`yar edi.

SKORPIUS: Lekin bu boshqa siz edingiz.

U qovog`ini uyib o`tirgan otasiga qaradi.

Men juda ham yomon ishlar qildim lekin siz qilgan qishlar undan ham yomon . Biz kimga aylanib qoldik, dada?

DRAKO: Biz hech kim emasmiz.. Biz avval qanday bo`lgan bo`lgan bo`lsak hali ham shundaymiz.

SKORPIUS: Malfoylar. Doimo dunyoni yanada zulmatga giriftor etadigan oila deb hisoblasak bo`ladi.

Bu Drakoda g`alati tassurot qoldiradi. U Skorpiusni diqqat bilan kuzatadi.

DRAKO: Unday bo`lsa, seni maktabdagi ishing... bunga seni nima undadi?

SKORPIUS: Men hozir kim bo`lib qolgan bo`lsam ham u bo`lishni xoxlamayman.

DRAKO: Va nimaga bunday o`ylay boshlading?

Skorpius gaplarini tasvirlashga so`z qidirardi.

SKORPIUS: Men o`zimni boshqa tomondan ko`rdim.

DRAKO: Bilasanmi oyingdagi qaysi hislat menga ko`proq yoqishini? U har doim menga qorong`ulikdan nurni topishimda yordam bergan. U dunyoni, meni dunyoyimni xuddi sen aytganingdek zulmatga girihtor etib ketdi.

SKORPIUS: Rostdanmi?

Drako o`g`liga uni xuddi o`rganmoqchiday qaradi.

DRAKO: Aslida men o`ylaganimdan ham ko`proq zulmat qilib ketgan ekan.

Jimlik. Drako diqqat bilan Skorpiusni kuzatdi. Nima qilsang ham ehtiyot bo`l. seni

ham yo`qota olmayman.

SKORPIUS: Ha janob.

Drako oxirgi marta diqqat bilan o`g`lini kuzatdi va u nimani o`ylayotganini tushunishga harakat qildi.

DRAKO: Volan-de-Mort nomi va jasorati ila.

Skorpius unga qaradi va xonadan chiqish eshigi tomon yo`naldi.

SKORPIUS: Volan-de-Mort nomi va jasorati ila.

UCHINCHI AKT, TO`RTINCHI PARDA

XOGVARTS KUTUBXONASI.

Skorpius kutubxonaga kirdi va ishonch va o`zgacha ishtiyoq bilan kitob javonidagi kitoblarni ko`zdan kechira boshladi. U tarix kitobini topadi.

SKORPIUS: Sedrik qanday qilib O`limdan Miriquvchilar safiga qo`shilib qoladi? Menga bu zulmatda bironta yorug`lik ber. Menga sirlaringni och. Men nimani nazardan qochirdim?

KREYG BOUKER JR: Sen bu yerda nima qilayapsan?

Skorpius ortiga o`girilib Kreygni ko`radi qaysiki xayrat bilan unga qarayotgan. Uning kiyimlari eskirgan va uvadaga aylanib ketgan.

SKORPIUS: Nimaga men bu yerda bo`lishim mumkin emas?

KREYG BOUKER JR: U hali tayyor emas. Men qo`limdan kelguncha tez harakat qilib uning ustida ishlayapman. Professor Sneyp juda ham ko`p vazifa bergan, bunda bitta mavzuga ikki xil insho yozish kerak edi. Lekin men shikoyat qilmayapman... kechir.

SKORPIUS: Yana bir marta. Boshidan. Nima tayyor emas?

KREYG BOUKER JR: Sening Sexrli Damlamalar bo`yicha uyga berilgan vazifang. Men ularni qilayotganimdan xursandman, hattoki minnatdorman va men yana kitoblarni va uyga berilgan vazifalarni qilishni yoqtirmasligingni ham bilaman. Sen bilasanku men seni hech qachon yuzingni yerga qaratmayman.

SKORPIUS: Men uyga vazifalarni yoqtirmayman?

KREYG BOUKER JR: Sen Chayonlar Qirol albatta ularni yoqtirmaysan. Sen Sexrgarlik Tarixini nima qilayapsan? Men undan ham uyga vazifa tayyorlashim kerakmi?

Jimlik. Skorpius Kreygga qaraydi va ortga chekinib unga yo'l beradi. Kreyg saxnadan chiqadi. Qanchadir soniyada Skorpius chimirilgan holatda qaytadi.

SKORPIUS: U "Sneyp" dedimi?

UCHINCHI AKT, BESHINCHI PARDA

XOGVARTS, SEXRLI DAMLAMALAR TAYYORLASH XONASI.

Skorpius sexrli damlamalar tayyorlanish xonasi eshigini gup etib uradiyu yugurib kiradi. Sneyp unga yuzlanadi.

SNEYP: Bolakay senga taqqilatishni o'rgatishmaganmi?

Skorpius Sneypga biroz ishonqiramay, biroz asabiylashib va bir vaqtni o'zida uning yuziga termulib qaradi.

SKORPIUS: Severus Sneyp. Qanday sharaf.

SNEYP: Professor Sneyp yaxshiroq eshitiladi. Bu maktabda o'zingni shoxlarday tutishing mumkin, Malfoy, lekin bu meni sizlarning fuqarongiz qilib qo'ymaydi.

SKORPIUS: Lekin siz bir narsaga javob...

SNEYP: Men mamnunman. Bolakay agar menga aytadigan biron gaping bo'lsa marhamat gapir.... Agar bo'lmasa eshikni ortidan yopib qo'y.

SKORPIUS: Menga sizning yordamingiz kerak

SNEYP: Men bu yerda sizlarga xizmat qilish uchun shu yerdaman.

SKORPIUS: Men faqat aynan qanday yordam kerakligini bilmayman... Siz hali ham fosh etilmagansiz, ichkaridamisiz? Siz hali ham xufiya ravishda Damblorga ishlayapsizmi?

SNEYP: Damblor? Damblor o'lgan. Keyin meni harakatim xufiya bo'lmagan, men uni maktabda sotganman.

SKORPIUS: Yo'q. Siz faqatgina buni qilmagansiz. Siz u uchun O'limdan

Miriquvchilar ichidan xufiyalik qilgansiz. Siz unga maslahatlar berib turgansiz. Hamma uni siz o`ldirgansiz deb o`ylagan alsida esa uni tarafdori bo`lgansiz. Siz dunyoni qutqargansiz.

SNEYYP: Bolakay bu juda ham xavfli ayblov. Keyin o`ylamaki Malfoy familiyasi seni men jazo tayinlashimdan qutqarib qolmaydi.

SKORPIUS: Nima bo`ladi agar men sizga yana boshqa dunyo Xogvarts uchun bo`lgan Jangda Volan-de-Mort Garry Potter va Dambldor Armiyasi tomonidan yengilgan dunyo borligi haqida aytsam? Nima deysiz shunda...

SNEYYP: Men Chayonlar Qirol qaldan ozibdi degan mish-mish haqiqatga yaqin deyman.

SKORPIUS: Bitta o`g`irlangan Vaqt chig`irig`i mavjud edi. Men uni o`g`irlagandim. Albus bilan. Biz qachonlardir o`lgan Sedrik Diggorini hayotga qaytarmoqchi bo`lgan edik. Biz unga Uch Sexrgar musobaqasida yutishiga xalaqit bermoqchi bo`ldik. Biz tufayli u umuman boshqa odamga aylanib qoldi.

SNEYYP: Uch Sexrgar musobaqasida Garry Potter yutib chiqqan edi.

SKORPIUS: Uni u bir o`zi yutib chimasligi kerak edi. Sedrik ikkisi uni birgalikda yutishlari kerak edi. Biz uni yerga urdik va natijada u O`limdan Miriquvchiga aylandi. Men uni Xogvarts uchun Jangda qanday hunar ko`rsatganini bila olmadim. U kimnidir o`ldirganmi yoki yo`q, lekin nima qilgan bo`lsa ham hamma narsani o`zgartirib yuborgan.

SNEYYP: Sedrik Diggori faqatgina bitta umuman muhim bo`lmagan sexrgarni Nevil Dolgopupsni o`ldirdi.

SKORPIUS: O albatta! Professor Dolgopups Volan-de-Mortning iloni Nagaynani o`ldirishi kerak edi. Nagayna o`ldirilishi va keyingina Volan-de-Mort yengilishi kerak edi. Mana nihoyat! Siz tushuntirib berdingiz menga! Biz Sedrik Diggorini ortidan qilgan ishimiz natijasida u Nevilni o`ldiradi va Volan-de-Mort bu jangda g`alaba qozonadi. Tushunayapsizmi? Siz buni tushunayapsizmi?

SNEYYP: Men Malfoylarning ermagi deb tushunayapman. Men otangga ustingdan yozib yuborishimdan va senda boshqa muammolar paydo bo`lishidan oldin bu yerdan tuyog`ingni shiqqilat qol.

Skorpius o`ylanib qoldi va oxirgi kartani ochdi.

SKORPIUS: Siz uning onasini sevgan edingiz. Men hamma tafsilotlarini eslay olmaymanu lekin siz uni sevar edingiz. Garryning onasi Lilyni. Men ko`p yillar

davomida xufiya tarzda ishlaganingizni bilaman. Men yana siz bo`lmaganingizda bu jangda g`alaba qozonilmagan bo`lishini bilar edi. Men bularning hammasini agarda boshqa dunyoni ko`rmaganimda qayerdan bilgan bo`lar edim...?

Sneyp hayratdan so`z topa olmay qoldi.

Faqatgina Dambldor bundan xabardor edi shundaymi? Siz uni yo`qotganingizda o`zingizni juda ham yolg`iz his qilgan bo`lsangiz kerak. Men sizni juda ham yaxshi odam deb bilaman. Hattoki Garry Potter o`z o`g`liga sizni buyuk odam deb aytgan.

Sneyp sodir bo`layotganlarga ishonchsizlik bilan Skorpiusga qaradi. Bu o`yinmi? U chindan ham o`zini yo`qotib qo`ygan edi.

SNEYP: Garry Potter o`lgan.

SKORPIUS: Faqatgina mening dunyoyimda emas. Uning aytishicha siz u bilgan odamlar ichida eng mard va jasuri bo`lgan ekansiz. U bilar edi, u Dambldor uchun nimalar qilganingiz haqidagi sirni bilar edi. U sizga qoyil qolgan edi, chindan ham qoyil qolgan edi. Shuning uchun u o`g`lini, mening eng qadrdon do`stimni, sizning sharafingizga ism qo`ydi. Albus Severus Potter.

Sneyp muzlab ketdi. U ich-ichidan muzlab ketdi.

Iltimos... Lily uchun, butun dunyo uchun menga yordam bering.

Sneyp o`ylanib qoldi, Skorpiusga yaqin keldi va sexrli tayoqchasini chiqardi. Skorpius ortga tisarildi va qo`rqib ketgani ko`rinib turibdi. Sneyp sexrli tayoqchasini eshikka yo`naltirdi.

SNEYP: Kolloportus!

Korinmas qulf eshikni maxkam yopib qo`ydi. Sneyp xonaning orqa tomonidagi devordan lyukni tortdi.

Yaxshi, bu yoqqa ...

SKORPIUS: Bittagina savol: biz qayerga ketayapmiz?

SNEYP: Biz ko`p marotaba aralashishimizga to`g`ri kelgan. Biz qaysi joyga to`xtagan bo`lsak ular uni yo`q qilishdi. Lyuk bizni Urushqoq Tol pastidagi maxfiy xonaga eltadi.

SKORPIUS: Yaxshi, lekin "biz" deganingiz kimlar?

SNEYP: O. Hozir ko`rasan.

UCHINCHI AKT, OLTINCHI SAXNA

UMUMIY XONA.

Skorpius Germionaning stoliga yaqinlashadi. U juda ham ko`rkam ko`rinadi. Uning kiyimlari tozib ketgan, lekin ko`zlari nur sochardi. U haqiqiy jangchiday ko`rinadi va bu unga juda ham yarashib turardi.

GERMIONA: Yana bitta qadam va miyang qurbaqaga va qo`llaring rezinaga aylanib qoladi.

SNEYYP: Xavf yo`q. U xavfli emas (oraga jimlik cho`kadi). Sen hech qachon eshitish olmagansan, shuni bilasan. Sen o`ta ketgan darajada yomon o`quvchi bo`lgansan, hozir ham o`ta ketgan... hozir kim bo`lsang ham.

GERMIONA: Men juda ham ajoyib o`quvchi bo`lganman.

SNEYYP: Hech qanday yomonligi yo`q. U biz tomonda!

SKORPIUS: Bu shunday qilib Germiona.

Germiona Skorpiusga ishonchsizlik bilan qaraydi.

GERMIONA: Ko`pchilik meni Grenjir sifatida biladi va men seni hech qaysi so`zingga ishonmayman Malfoy...

SKORPIUS: Bularning hammasi meni aybim. Meni aybim. Va Albusning.

GERMIONA: Albus? Albus Damblдор? Albus Damblдор nima qilipti?

SNEYYP: U Albus Damblдор haqida gapirmayapti. Yaxshisi o`tirib ol.

Xonaga Ron yugurib kiradi. Uning sochlari hurpayib ketgan, kiyimlari kir. Uning axvoli Germionaga nisbatan yomonroq edi.

RON: Sneyp, qanday sharaf va...(U Skorpiusni ko`radi va sakrab ketadi). U bu yerda nima qilayapti?

U sexrli tayoqchasini chiqaradi.

Men qurollanganman, xavfliman va senga extiyot bo`lishni ...(U tayoqchani teskari ushlab olganini tushunadi va uni o`nglab oladi) maslaxat beraman.

SNEYYP: Hammasi joyida Ron.

Ron Germoinaga qaraydi, Germiona bosh irg`itadi.

RON: Dambldor sharafi uchun.

UCHINCHI AKT, YETTINCHI SAXNA

UMUMIY XONA

Germiona o`tirib Vaqt chig`irig`ini ko`zdan kechirar, bu paytda Ron bugungi ma`lumotlar bilan tanishar edi.

RON: Aytmoqchisanki bu voqealarning barchasi Nevil Dolgopups atrofida qotib qolganmi? Aqldan ozish mumkin.

GERMIONA: Bularning barchasi haqiqat Ron.

RON: Rostdan. Sen unga ishonasan chunki...

GERMIONA: Chunki u Sneyp haqida va biz haqimizdagi hammasini biladi... u hech qanaqasuga eplay olmasdi...

RON: Balkim u shunchaki o`ylab topgandir?

SKORPIUS: Yo`q o`ylab topmadim. Shunday qilib yordam berasizlarmi?

RON: Biz yordam beradigan yagona shaxslarmiz. Dambldor Armiyasi tarafdorlari avvalgiga nisbatan ancha kamaygan. Umuman aytganda faqat bizmiz tirik qolganlar lekin biz kurashishni davom ettiramiz. Yashirinib yuribmiz. Ularning asabiga tegadigan hamma ishni qilayapmiz. Grenjir va men birinchi raqamli qidirilayotganlarmiz.

SNEYYP (quruqqina): Sen to`g`risi ikkinchi raqamlisisan.

GERMIONA: Kelinglar aniqlashtirib olaylik: boshqa dunyoda... qanday bilib bungacha aralashib qolganing...

SKORPIUS: Volan-de-Mort Xogvartsdagi Jangda o`ldirilgan. Garry Sexrgarlik qonunlarini tatbiq etish vazirimi. Siz-Sexrgarlik vazirligi bosh vaziri.

Germiona eshitganlaridan xayratga tushadi va tabassum qiladi.

GERMIONA: Men Sexrgarlik vazirligi bosh vaziri?

RON(Ularning suxbatiga qo`shilishga oshiqadi): Ajoyib. Men nima bilan shug`ullanaman?

SKORPIUS: Siz Uizlilar Sexrli Nafasi do`konida ishlaysiz.

RON: Aniqrog`i u Sexrgarlik vazirligi bosh vaziri, men esa hazil huzul do`konida ishlayman shundaymi?

Skorpius labini burgan Ronga qaradi.

SKORPIUS: Siz ko`proq bolalar tarbiyasi bilan bandsiz.

RON: Umid qilamanki ularning onasi go`zallarning go`zali.

SKORPIUS (qizarib): unda... emm...Unda bunday narsa, tushunayapsizmi... Gap shundaki, sizlarning umumiy ikkita farzandingiz bor. Qizingiz va o`g`lingiz.

Germiona va Ron hayratlangani ko`rinib turibdi.

Turmush qurgansizlar. Bir biringizni sevasiz. Boshqa dunyoda ham buni eshitib hayratga tushdingiz. Unda siz Yovuz Kuchlardan Ximoya fani professori va Ron esa Lavandaga uylangan edi. Sizlar bulardan har doim xayratlangan edingiz.

Germiona va Ron bir biriga qarashadi va ko`zlarini olib qochishadi. Keyin Ron atrofga nazar tashladi. Va bir necha marotaba yo`taldi. Ozroq ishonch bilan.

GERMIONA: Uizli, menga qaraganingda og`zingni yop.

Va Ron shunday ham qiladi. Bularga qaramay hayratlanishda ko`rinishni davom ettirardi.

Sneypchi? U dunyoda Sneypga nima qilgan?

SNEYP: Hamma dunyoda men o`lganman.

U Skorpiusga qaraydi. Zo`rg`a tabassum qiladi.

Sen meni ko`rganingda juda ham hayratlangan eding. Qanday?

SKORPIUS: Mardonavor.

SNEYP: Kim?

SKORPIUS: Volan-de-Mort.

SNEYP: Qanday g`ashingga tegadiya.

Sukunat cho`kadi. Sneyp eshitganlarini hazm qilishiga harakat qilayapti.

Men Yovuz Lordning sirdoshi bo`lishni sharaf deb bilaman.

GERMIONA: Juda ham qayg`udaman Sneyp.

Sneyp unga qaraydi va his qilayotgan og`rig`ini yashirishga harakat qiladi. U

Ronni boshi bilan ko`rsatadi.

SNEYYP: Lekin, bunday olib qarasa men Ronga turmushga chiqmaganman.

GERMIONA: Qaysi afsunlarni qo`llagan edinglar?

SKORPIUS: Musobaqaning birinchi shartida Ekspelliarmusni va ikkinchi shartda Engorgioni.

RON: Oddiy qalqon afsunlari ikki vaziyatda ham yordam berishi kerak edi-ku.

SNEYYP: Keyin qaytib ketdinglarmi?

SKORPIUS: Ha, Vaqt chig`irig`i bizni qaytardi. Hamma muammo shundaki – Vaqt chig`irig`i bizni o`tmishga faqatgina besh daqiqagina olib o`tayapti.

GERMIONA: Va sen hali ham faqat vaqtlar aro sayohat qilayapsan, makonlar aro emas.

SKORPIUS: Ha, ha, bu...emm....siz makonning aynan o`zingiz turgan joyiga qaytasiz....

GERMIONA: Qiziq.

Sneyyp va Germiona bu nimani anglatishini tushunishadi.

SNEYYP: Unda men va bolakay birga boramiz.

GERMIONA: Hafa bo`lmangkuya Sneyyp men buni hech kimga ishonmayman, bu juda muhim narsa.

SNEYYP: Germiona sen butun sexrgarlik olamidagi eng ko`p qidiralayotgan shaxssan. Buni qilish uchun sen tashqariga chiqishing kerak. Eslab ko`r oxirgi marta qachon tashqariga chiqding?

GERMIONA: Unchalik ko`p bo`lmadi...

SNEYYP: Agar seni tutib olishsa dementorlar sendan bo`sa oladi va butun borlig`ingni so`rib oladi.

GERMIONA: Bunday yashirinib yashash va hokimiyatni qayta qo`lga olishga bo`lgan harakatdan keyin yana qochish meni jonimga tegdi. Bu bizni dunyoni qayta qurishdagi imkonimiz.

U kartalarni chiylayotgan Ronga qarab bosh irg`itdi.

Musobaqaning birinchi sharti o`rmon yoqasida bo`lgan edi, afsunni bekor qilamiz

va ortimizga qaytamiz. Hammasi biz o`ylagan aniqlikda bo`ladi va bizga hattoki bizning paytimizda tashqariga chiqishimizga ham to`g`ri kelmaydi. Keyin yana ortimizga qaytamiz va ko`lga borib hammasini to`g`irlaymiz.

SNEYYP: Sen hammasini tavakkal qilayapsan...

GERMIONA: Hammasini joy joyiga qo`yamiz: Garry tiriladi, Volan-de-Mort o`ladi, Avgureya mavjud bo`lmaydi, bularning barchasi uchun har qanday harakatga tavakkal qilsak arziydi. Faqatgina sizga qimmatga tushadi.

SNEYYP: Ba`zi narsalarni baxosi shunga arziydi.

Ular bir biriga qarashadi, Sneyp bosh irg`itadi va unga javoban Germiona ham. Sneyp burushib qo`yadi.

SNEYYP: Dambldor nima degan bo`lar edi?

GERMIONA (tabassum bilan): Yo`q men Severus Sneypga ishonaman.

U Skorpiusga o`giriladi, Vaqt chig`irig`iga ishora qiladi.

Malfoy...

Skorpius Vaqt chig`irig`ini unga beradi. Germiona tabassum qiladi, yana ushbu Vaqt chig`irig`idan foydalanishni o`ylab hayajonga tushadi.

Kelinglar hammasi ish berishiga umid qilamiz.

U Vaqt chig`irig`ini oladi. Vaqt chig`irig`I titrashni boshlaydi va keyin u harakatni boshlaydi.

Katta chaqnash va quloqni qomatga keltiradigan shovqin paydo bo`ladi.

Vaqt to`xtab qoladi. Keyin ortga qaytadi, soniyagagina muzlab qoladi va orqaga harakat qilishni boshlaydi. Birinchi juda ham sekin....

UCHINCHI AKT, SAKKIZINCHI SAXNA

MAN ETILGAN O`RMON YOQASI, 1994-YIL.

Biz yana birinchi aktdagi manzarani guvohi bo`lamiz, lekin saxnadan emas ko`proq saxna ortidan. Biz Albus va Skorpiusni Durmshtang korjomasida ko`ramiz. Atrofda “ajoyib” degan (bu yana bizning emas uning so`zlari edi) Lyudo

Begmanning hayqirig`ini eshitamiz.

Skorpius, Ron, Germiona va Sneyp atrofga havotirlanib qaraydi.

LYUDO BEGMAN: Va mana Sedrik Diggori maydonda. U tayyordek ko`rinayapti. Hayajonda lekin tayyor. U bir tarafga olib qochdi, endi boshqa tomonga. Qizlar Diggori pana joy qidirib sakraganida vas-vasaga tushib qolishdi. Ularning barchasi bir ovozda bunday baqirishayapti: Janob ajdar bizning Diggoriga tegmang! Sedrik chapdan aylanib o`ngdagi chuqurga sakradi va sexrli tayoqchasini chiqarayapti...

SNEYP: Bu ko`p vaqtni oladi, biz ulgurmaymiz. Vaqt chig`irig`I titrashni boshladi.

LYUDO BEGMAN: Bu kelishgan yigitcha bizga nima tayyorladi ekan a?

Albus Sedrikni tayoqchasini o`ziga chorlamoqchi bo`ladi lekin Germiona uni bloklab qo`yadi. Albus sexrli tayoqchasiga baxtiqaro ko`rinishda nimaga afsun ta`sir qilmaganini tushunmay qarab qoldi. Keyin Vaqt chig`irig`I harakatni boshlaganda ular bir biriga havotirli nazar bilan qarab qoliashdi va ularni Vaqt chig`irig`i ichiga yutishni boshladi.

Kuchukcha! U toshni kuchukchaga aylantirdi va bu yaxshi chalg`ituvchi usul bo`ldi. Mana bu Sedrik Diggori- mana bu kuchukcha chalg`itish usuli!

UCHINCHI AKT, TO`QQIZINCHI SAXNA

MAN ETILGAN O`RMON YOQASI

Ular o`tmishdan man etilgan o`rmonning eng chetiga qaytishadi va Ron kuchli og`riq sezadi. Sneyp butun atrofni ularni bildirmasdan qurshab olgan notinchlikni kuzatadi.

RON: Aaaa. Aaaaaaa.

GERMIONA: Ron...Ron... Senga nima qildi?

SNEYP: O yo`q. Men bilgandim.

SKORPIUS: Vaqt chig`irig`i Albus bilan ham nimadir qilgan edi. Birinchi marta biz ham ortimizga qaytganimizda.

RON: Ertaroq aytishni iloji yo`q edimi?

SNEYYP: Biz hozir tashqaridamiz va bu yerdan tezroq ketishingiz kerak.

GERMIONA: Ron hali ham yura olasanmi, ktdik...?

Ron turadi og`riqdan baqirib yuboradi. Sneyyp sexrli tayoqchasini chiqaradi.

SKORPIUS: Ish berdimi?

GERMIONA: Biz afsunnu bekor qildik. Sedrik tayoqchasini yo`qotmadi. Ha. Ish berdi.

SNEYYP: Lekin biz qayerdan ketgan bo`lsak o`sha joyga qaytmadik. Biz tashqaridamiz. Sizlar tashqaridasizlar.

RON: Yana Vaqt chig`irig`idan bu yerdan ketish uchun foydalanishga to`g`ri keladi.

SNEYYP: Pana joy topishimiz kerak. Bu joy juda ham xavfli.

To`satdan atrofga borliqni muzlatib yuboradigan havo kirib keladi. Ularning atrofini qora korjomalilar o`rab oladi. Qora korjomalar qora sharpalar ko`rinishga keladi. Ular dementorlarga aylanishadi.

GERMIONA: Juda ham kech.

SNEYYP: Bu falokat.

GERMIONA (u nima qilishi kerakligini tushunadi): Ular bu yerga meni ortimdan kelishgan hech biringizni ortingizdan emas. Ron men seni sevaman va har doim sevganman. Lekin uchchalangiz qochishingiz kerak. Hoziroq.

RON: Nima?

SKORPIUS: Nima?

RON: Birinchi sevgi masalasi haqida gaplashib olsak bo`ladimi?

GERMIONA: Biz hali ham Volan-de-Mort dunyosida yashayapmiz va bu meni jonimga tegib ketdi. Keyingi qadam hammasini to`g`rilashi kerak.

SKORPIUS: Lekin u sizdan bo`sa oladi. Sizdan butun borlig`ingizni so`rib oladi.

GERMIONA: Keyin sen o`tmishni to`g`rilaysan. Va buni ular qila olmaydilar. Tezroq, ketinglar.

Dementorlar ularni payqaydi. Ular ularning atrofini butunlay o`rab olishadi va atrofdan qo`rqinchli baqiriqlar yangraydi.

SNEYYP: Biz ketamiz, ketdik.

U Skorpiusnin qo`lidan tortadi. Skorpius g`ayri ixtiyoriy ravishda u bilan birga ketadi. Germiona Ronga qaraydi.

GERMIONA: Sen ham ketishing kerak.

RON: Lekin ular mening ham ortimdan kelishgan va hali ham og`riq qolmadi. Keyin meni bu yerda qolishini avzal ko`rishimni ham bilasan.

EKSPEKTO....

Germiona uni qo`lini afsunni butunlay o`qib bo`lishidan oldin to`xtatib qoladi.

GERMIONA: Kel ularni shu yerda tutib turamiz va bolakayni qutulishiga imkon beramiz.

Ron mayus bosh irg`iydi.

Qizimiz.

RON: Va o`g`limiz. Menga ham bu fikr yoqdi.

U atrofiga qaradi va keying taqdirini tushundi.

Qo`rqayapman.

GERMIONA: Meni o`p.

Ron o`ylaydi va undan bo`sa oladi. Ularni bir biridan ajratishadi va yerga taqashadi. Va biz ularning tanasi ustidan oq-sariq tutunni ko`tarilganini kuzatamiz. Ulardan borliqlarini so`rib olishadi. Qanday daxshat.

Skorpius qaraydi va ularga hech qanday yordam bera olmasligini tushunadi.

SNEYYP: Kel suvga tushamiz. Yur. Yugurma.

Sneyyp Skorpiusga qaraydi

Tinchlan Skorpius. Ular ko`r bo`lishgani bilan sening qo`rquingni his qila olishadi.

Skorpius Sneyypga qaraydi.

SKORPIUS: Ular hozirgina bizning do`stlarimizni borliqlarini so`rib olishdi.

Dementor ular yonidan uchib ketayotib Skorpius to`g`risida to`xtaydi.

SNEYYP: Skorpius biron boshqa narsa haqida o`yla. Faqat baxtli kunlaring haqida

o`yla.

SKORPIUS: Men sovuq qotib ketayapman. Men hech narsani ko`rmayapman. Ichimdan ham tashimdan ham butunlay tuman qopladi.

SNEYYP: Sen Qirolsan, men esa professorman. Ular bizga shunchaki tashlanishmaydi. Sen kimlarni yaxshi ko`rishing, nima uchun bu yerda ekanligingi o`yla.

SKORPIUS: Men oyimni ovozini eshitayapman, u meni kutayapti, meni yordamimni kutayapti lekin u men unga yordam bera olmasligimni ham biladi.

SNEYYP: Menga quloq sol Skorpius. Albus haqida o`yla. Sen o`z qirolligingni Albus tufayli tark etayapsan shundaymi?

Skorpius ximoyasiz edi. U o`zini butun borlig`i bo`shab qolganday his qilardi.

Yagona inson. Hammasi uning uchun. Lily haqi Garryni qutqara olmadim. Shunday ekan men endi o`zimni bu ishga tikkanman. Men uzoq vaqtgacha bunga ishonish qiyin bo`ldi lekin endi ishonaman.

Skorpius Sneypga qarab tabassum qiladi. U qat`iyat bilan dementordan uzoqlashadi.

SKORPIUS: Hammasi o`zgarayapti va biz uni o`zgartiramiz. Bu dunyo menga begona lekin yaxshi emas ekan. Va men xoxlamayman...

To`satdan Doloris Ambrich ular yonida paydo bo`ladi.

DOLORIS AMBRIJ: Professor Sneypp!

SNEYYP: Professor Ambrij.

DOLORIS AMBRIJ: Yangiliklarni eshitdingizmi? Biz nopok qon Germiona Grenjirni tutib oldik. Ular bu yerdan uzoq emas ekan.

SNEYYP: Zo`r bo`libdiku!

Ambrij diqqat bilan Sneyppni kuzatadi. Sneypp burulib qaraydi.

DOLORIS AMBRIJ: Sen bilan. Grenjir sen tomon bo`lgan

SNEYYP: Men bilan? Adashayapsiz.

DOLORIS AMBRIJ: Sen bilan va men ko`proq o`ylagan bola Skorpius Malfoy bilan.

SKORPIUS: Yaxshi....

SNEYP: Biz mashg`ulotga kech qolamiz, agar siz bizni....

DOLORIS AMBRIJ: Agar kechikayotgan bo`lsangiz nega maktab tomon emas ko`l tomon ketayapsiz?

Shu daqiqada jimlik cho`kadi. Va keyin Sneyp nimadir juda ham g`alati harakat qiladi - u kuladi.

SNEYP: Va anchadan beri shubxalanib yuribsizmi?

Ambrij havoga ko`tariladi. Qora joduga to`la qo`lini katta ochib sexrli tayoqchasini qo`liga oladi.

DOLORIS AMBRIJ: Bir yildan beri. Seni allaqachon yo`q qilishim mumkin edi.

SNEYP Sexrli tayoqchasini undan tezroq qo`liga oladi.

SNEYP: DEPULSO!

Ambrij havoda ortga tisariladi. Uning baxtga qarshi u yetarlicha qudratli edi bu afsun uchun. Boshqa ortga yo`l yo`q. Ular boshidagi osmon borgan sari qorong`ulashib borar edi.

EKSPEKTO PATRONIUS!

SKORPIUS: Bug`u? Lilyning ximoyachisi?

SNEYP: G`alati shunday emasmi? Mana nima bor mening ichimda.

Dementorlar ularni qurshab boshladi. Sneyp bularning bari nimalarga olib kelishini tushunib yetadi.

Sen qochishing kerak. Men ularni iloji boricha uzoqroq ushlab turishga harakat qilaman.

SKORPIUS: Rahmat bu butun zulmat ichidagi nur bo`lganingiz uchun.

Sneyp unga qaraydi, har bir dyumigacha qahramon, Sneyp unga yumshoqqina kulib qo`yadi.

SNEYP: Albusga, Albus Severusga u mening ismimni olib yurganidan faxrlanishimni yetkazib qo`y. Endi ket. Tezroq.

Bug`u Skorpiusga o`giriladi va keyin unga yo`l ochib yuguradi.

Skorpius yugurar shu bilan birga o`ylab ketar edi. Uning atrofidagi dunyo esa

borgan sari qorong`ulashib boraverardi.

Bir tomondan yurakni larzaga keltiradigan darajadagi hayqiriq eshitiladi. U ko`lni ko`radi va unga sakraydi.

Sneyppni o`zini tayyorlaydi. Sneyppni yerga qattiq urishadi va keyin ko`kga uning borlig`i tanasini tark etadi. Atrofdagi baqiriq yana ham balanroq yangrayapti.

Bug`u unga o`giriladi, unga o`zining beqiyos ko`zlari bilan qaraydi va g`oyib bo`ladi.

Gumburlash eshitiladi va chaqmoq chaqadi. Keyin jimlik cho`kadi. Keyin yana ham sukunat cho`kadi. Shunday sukunat sodir bo`ladiki bunda dunyoda har doim tinchlik va osoyishtalik bo`lganday. Keyin Skorpius tepaga sayozlikka chiqadi. Chuqur nafas oladi. Atrofga qaraydi.

Nafasi ichiga tushib sarosimaga tushib qoladi. Osmonga qaraydi. U avvalgiga nisbatan ham moviyroq edi nazarida. Albus to`satdan uning ortidan paydo bo`ladi. Sukunat. Skorpius Albusga qaraydi, u shu yerdaligiga ko`zlari ishonmaydi. Ikkala bola ham to`xtamasdan nafas olar va nafas olar edi.

ALBUS: Vau!

SKORPIUS: Albus!

ALBUS: Biz juda ham yaqin edik! Sen o`sha Triton (yunon mifologiyasida tanasining tepa qismi odam, yarmi baliq dumi shaklida bo`lgan dengiz xudosi)ni ko`rdingmi? Keyin haligi yigitni o`zining narsasi bilan.... Vau!

SKORPIUS: Bu senmisan?

ALBUS: Bu menga juda ham g`alati ko`rindi, chunki men Sedrikni qanday yiriklashib ketayotganini ko`rdim lekin u yana kichrayib ketdi. Keyin senga qaradim sen esa sexrli tayoqchang chiqarilgan holatda turar eding...

SKORPIUS: Sen tasavvur ham eta olmaysan men seni ko`rganimdan qanchalik baxtiyor ekanligimni.

ALBUS: Biz ikki daqiqa oldin ko`rishdik.

Skorpius Albusni suvda quchib oladi, bu albatta qiyin bo`ldi.

SKORPIUS: Shu vaqt orasida nimalar bo`lib ketmadi.

ALBUS: Astaroq meni bo`g`ib o`ldirib qo`yasan hozir. Nima kiyib olgansan?

SKORPIUS: Nima kiyib olibman? (korjomasini yechib tashlaydi). Senchi, nima kiyib olgansan? Ha! Sen Slizirinda eding!

ALBUS: Ish berdimi? Biz uddaladikmi?

SKORPIUS: Yo`q va bu shundayligicha ham ajoyib ekan.

Albus unga ishonqiramay qaraydi.

ALBUS: Nima? Biz uddalay olmadik.

SKORPIUS: Ha, ha. Bu shundayligicha ham ajoyib ekan.

U suvni qo`li bilan uradi. Albus qirg`oqqa qarab yo`naladi.

ALBUS: Skorpius sen yana shirinliklarni oshirib yubordingmi deyman?

SKORPIUS: Mana yana boshlandi jiddiy ko`rinish bilan xazil qilish. Meni qadrli do`stim Albusjon. Seni juda yaxshi ko`ramanda.

ALBUS: Endi men havotirlanishni boshladim...

Garry paydo bo`ladi va suva qarab yuguradi. Uning ortidan Drako, Jinna va Professor Mekanagol kelishar edi.

GARRY: Albus, Albus, yaxshimisan?

SKORPIUS (xursandchilikdan): Garry! Garry Potter! Va Jinni. Va Professor Mekanagol. Va dadam. Dadajonim. Salom dada.

DRAKO: Salom Skorpius.

ALBUS: Siz hammangiz shu yerdasiz.

JINNI: Mirtl bizga hammasini aytib berdi.

ALBUS: Nima bo`layapti?

PROFESSOR MAKANAGOL: Siz hozirgina o`tmishdan qaytib keldingiz balkim o`zingiz hammasini aytib berarsiz?

Skorpius darrov ular hammasidan xabardor ekanligini tushunib yetadi...

SKORPIUS: O yo`q. La`nati! Qani u?

ALBUS: Qayerdan qaytdik?

SKORPIUS: Men uni yo`qotib qo`ydim! Men Vaqt chig`irig`ini yo`qotib qo`ydim!

ALBUS (Skorpiusga juda ham achchiqlanib qaraydi): Nimani yo`qotib qo`yding?

GARRY: O`zingni axmoqlikka solishni bas qil Albus.

PROFESSOR MAKANAGOL: O`ylashimcha sizlar hammasini tushuntirib berishingizga to`g`ri keladi.

UCHINCHI AKT, O`NINCHI SAXNA

XOGVARTS, DIREKTOR XONASI

Drako, Jinni va Garry qilgan qilmishlaridan afsuslanib aytib berayotgan Skorpius va Albus ortida turishibdi. Professor Makanagolning qoni qaynayapti.

PROFESSOR MAKANAGOL: Shunday qilib sizlar Xogwarts-Ekspressdan sakrab qochdingiz, Sexrgarlik Vazirligiga kirib Vaqt chig`irig`ini o`g`irladingiz, siz vaqtlarni o`zgartirib voqealarni o`zgartirish mumkinligini faxmladingiz, natijada esa ikki odam yer yuzidan butunlay o`chib ketdi...

ALBUS: Bilaman juda ham yoqimsiz eshitiladi.

PROFESSOR MAKANAGOL: Xyugo va Roza Uizlilar yo`qolib qolishi oqibatida sizlar yana ortga o`tmishga qaytishga qaror qildingiz va bu safar siz nafaqat ikki balkim minglab odamlarni yo`q bo`lishiga sabab bo`ldingiz. Bundan tashqari o`z otangizni ham o`ldirdingiz. Bu bilan siz odamzod bilgan dunyodagi eng yovuz sexrgarni, tiriltirdingiz va yangi asrni Yovuz Kuchlar asrini e`lon qildingiz. (Quruqqina) Siz haqsiz Janob Potter bu chindan ham yoqimsiz eshitiladi. Siz hech bo`lmasa tushunayapsiz siz qanday axmoqona yo`l tutganingizni?

SKORPIUS: Ha shunday Professor.

Albus ozgina ikkilanadi. Garryga qaraydi.

ALBUS: Ha. Shunday.

GARRY: Professor, mumkin bo`lsa...

PROFESSOR MAKANAGOL: Yo`q mumkin emas. Sizning ota ona sifatidagi qaroringiz o`zingizning ishingiz, lekin bu mening maktabim va bular mening o`quvchilarim. Ularga qanday jazo berishim mening ishim.

DRAKO: Xolisona.

Garry boshini sarakarak qilayotgan Jinnaga qaraydi.

PROFESSOR MAKANAGOL: men sizlarni haydashim kerak edi (Garryga qaraydi), har tomonlama o`ylab ko`rib sizlar mening nazoratimda bo`lish yaxshiroq degan fikrga keldim. Sizlar o`z jazoingizni olasiz...butun yil bo`yi. Sizlarga Rodjestvo bo`lmaydi. Xogsmid haqidaku esdan chiqarishingiz mumkin. Va bular hali boshlanishi...

To`satdan xonaga Germiona otilib kiradi. U butunlay qat`iy edi.

GERMIONA: Men nimani o`tkazib yubordim?

PROFESSOR MAKANAGOL (qizishib): Xonaga kirishdan oldin, Germiona Grenjir, xonani taqqilatish kerak, esingizdan chiqarib qo`ydingizmi?

Germiona o`z harakatini endi tushunadi.

GERMIONA: Ax.

PROFESSOR MAKANAGOL: Agar menda sizni, vazirni, jazolash vakolati bo`lganda men xuddi shunday qilgan bo`lar edim. Nima sababdan ushbu Vaqt chig`irig`ini saqlab qo`ydingiz.

GERMIONA: Men o`z ximoyam uchun aytmoqchimanki...

PROFESSOR MAKANAGOL: Yana kitob javonigaya! Tasavvur qiling kitob javonigaya! Bu kulguli juda ham.

GERMIONA: Minerva (chuqur nafas olib). PROFESSOR MAKANAGOL...

PROFESSOR MAKANAGOL: Sizning farzandlaringiz hattoki mavjud bo`lmagan!

Germionada bu uchun javob yo`q edi.

Bularning barchasi mening maktabimda, menung burnimning tagida sodir bo`ldi. Dambldorning shuncha narsa qilganidan keyin men o`zimni kechira olmagan bo`lar edim...

GERMIONA: Men sizni tushunaman.

PROFESSOR MAKANAGOL (o`zini qo`lga olib) : Sizning Sedrikni qutqarishga qaratilgan harakatingiz oliyjanoblik lekin o`ylamay qilingan. Taassurotlarni taxlaydigan bo`lsak siz o`zingizni mardlarcha tutibsiz, Skorpius va siz Albus. Lekin siz ham xuddi otangiz kabi ba`zi narsalarni esingizdan chiqarib qo`ygansiz, dovyuraklik aqlsizlikni oqlamaydi. Yo`q siz bir tasavvur qilib ko`ring-a: Volan-de-Mort hukmron bo`lgan dunyoni...

SKORPIUS: Bu juda ham qo`rqinchli dunyo edi.

PROFESSOR MAKANAGOL: Siz hali yoshsiz. (U Garry, Jinni, Drako va Germionaga qarab.) Siz juda ham yoshsiz. Siz oz bo`lsa ham tasavvur qila olmaysiz sextgarlar jangida qanchadan qancha qora tomonlar bo`lishini. Siz ba`zi odamlar jumladan bizning eng yaqin do`stlarimiz bu dunyoni muvozanatini, tinchligini saqlash uchun hayotini tikib yaratgan bu dunyoga masuliyatsizlik bilan yondashdingiz.

ALBUS: Shunday professor.

SKORPIUS: Shunday professor.

PROFESSOR MAKANAGOL: Ana endi keting. Hammangiz bu xonadan chiqib keting! O`sha Vaqt chig`irig`ini menga qidirib toping.

UCHINCHI AKT, O`N BIRINCHI SAXNA

XOGVARTS, SLIZIRIN UMUMIY YOTOQXONASI.

Albus o`z xonasida o`tirar edi. Garry xonaga kiradi va o`g`liga qaraydi. Garryning jaxli chiqar lekin o`zini bosishga harakat qilar edi.

GARRY: Rahmat bu yerga chiqishimga ruxsat berganing uchun.

Albus buruladi va otasiga qarab boshini silkitadi. U ham juda extiyot bo`lar edi.

Hozircha Vaqt chig`irig`ining qidiruvidan hech qanday yangilik yo`q. Ular Suv parilari va Tritonlardan ko`lni ko`zdan kechirib chiqishlarini so`rashayapti.

U o`tiradi lekin unga noqulay edi.

Bu juda ham yoqimli xona ekan.

ALBUS: Yashil rang juda ham tinchlantiradi, shunday emasmi? Griffindorning mexmonxonasi ham yaxshi lekin undagi muammo har xil axmoqona qadamlar qo`yishga moyilroq... Lekin men hech qanday yomon narsani nazarda tutmayapman...

GARRY: Balkim menga nimaga bunday yo`lni tutganingni tushuntirib berarsan?

ALBUS: Men nimanidir... nimanidir o`zgartira olaman deb o`ylagan edim. Men Sedrikni o`limi adolatsizlik deb o`ylagan edim.

GARRY: Albatta adolatsizlik. Albus meni buni tushunmaydi deb o`ylaysanmi? Men o`sha yerda edim, men uni o`limini ko`rdim. Lekin bu... hamma narsani tavakkal qilish...

ALBUS: Bilaman.

GARRY (jaxlini yashirmay): Agar sen men kabi dunyoni qutqaraman deb o`ylagan bo`lsang sen boshidan nohaq bo`lgansan. Men bu sargo`zashtlarga o`z xoxishim bilan chimaganman, meni unga itarib kirgizishardi. Sen o`zingni juda ham telbalarcha, juda ham axmoq tutding va o`zingi xavfga qo`yding, sen bizni hammamizni o`ldirishing mumkin edi.

ALBUS: Bilaman. Yaxshi. Hammasini tushundim.

Jimlik. Albus ko`z yoshini artadi, Garry buni payqab qoladi va chuqur nafas oladi. U jaxlini nazoratga oladi.

GARRY: Men ham Skorpius borasida Volan-de-Mort farzandi deya nohaq bo`lgan ekanman. U o`sha qora bulut bo`lmagan ekan.

ALBUS: Yo`q.

GARRY: Men xaritani olib qo`ydim. Sen uni boshqa ko`rmaysan. Qochib ketganingda xonang qanday bo`lgan bo`lsa onang shu xolicha qoldirgan, buni bilasanmi? U xonaga meni, umuman boshqalarni ham qo`ymadi, sen uni juda ham qo`rqitib yubording... va meni ham.

ALBUS: Men seni qo`rqitdim?

GARRY: Ha.

ALBUS: Menga Garry Potter hech narsadan qo`rqmaydigandek tuyulgan edi.

GARRY: Sen shunday o`ylar edingmi?

Albus otasiga qaraydi va uni tushunishga harakat qiladi.

ALBUS: Skorpius bizning birinchi omadsiz harakatimizdan keyin qaytganimzida meni Saralovchi shlyapa Griffindorga taqsimlaganini aytmadi. Lekin biz shunda ham ko`rishishni to`xtatmadik. Demak bizning muammo meni Slizirinchi ekanligimda emas. Bunda emas.

GARRY: Ha. Bilaman. Umuman bunda emas.

Garry Albusga qaraydi.

Albus axvoling yaxshimi?

ALBUS: Yo`q.

GARRY: Men ham.

UCHINCHI AKT, O`N IKKINCHI SAXNA TUSH, GODRIK JARLIGI, QABRISTONDA.

KICKINA GARRY gullar dastalari bilan butunlay ko`milib ketgan qabrlarga qarardi. U qo`liga kichkina guldasta ko`tarib olgan edi.

PETUNIYA XOLA: Bo`l endi tezroq anavi beo`xshov guldastangni qo`y, ketamiz. Menga bu ko`rimsiz qishloq umuman yo`qmayapti. Umuman bu fikr meni miyamga qayerdan kelib qolganligini tushunmayapman. Godrik Jarligi ko`proq Axlatxona Jarligiga o`xshar ekan, bunda chindan ham har xil qalang`i- qasang`i odamlar ko`p ekan. Bo`ldi endi, ketdik!

Garry qabrga yaqin keladi. U bir soniyagagina ushlanib qoladi.

Bo`ldi Garry... meni bunga vaqtim yo`q. Dudlicha bugun beysbolga borishi kerak, uni kechikishni yoqtirmasligini yaxshin bilasan-ku!

KICKINA GARRY: Petuniya xola. Biz ularning eng oxirgi qarindoshlarimiz, shundaymi?

PETUNIYA XOLA: Ha, shunday. Sen va men. Ha.

KICKINA GARRY: Va... ular unchalik odamlarga yoqmagan shundaymi? Siz ularni umuman do`srtlari bo`lmagan degan edingiz.

PETUNIYA XOLA: Lily harakat qilar edi... yer bilan bitta bo`lgur... u harakat qilardi, lekin bu uni aybi emas. U faqat odamlarda o`zining tabiati bilan nafrat uyg`otar edi. U mana shunaqa bo`lgan edi, u ichidan shunaqa edi, u shunday yashar edi. A sening otang esa- yoqimsiz odam edi, haddan tashqari yoqimsiz odam bo`lgan. Ularning do`stlari bo`lmagan. Bitta ham.

KICKINA GARRY: Unda umuman tushunmayapman bu guldastalar qayerdan kelib qolgan? Qabrlari ustidagi guldastalar qayerdan kelib qolgan?

Petuniya xola boshini ko`tarib guldastalarni birinchi bor ko`rib turar edi va bu unga juda qattiq tegib ketgan edi. U yaqinroq kelib singlisining qabri yaqiniga kelib o`tiradi. U butun kuchi bilan uni butunlay o`rab olayotgan o`zi his qilayotgan

hissiyotlari emosiyalarini ushlab qolishga sezdirmaslikka harakat qilar edi, lekin baribir sezdirib qoyayotgan edi.

PETUNIYA XOLA: Haaa, chindan ham. Ha bir - ikki juft guldastalar. Ular qo`shni qabrlardan uchib kelgandir. Yoki bu yerda qandaydir hiyla bor. Ha o`ylashimcha qandaydir kichkina muttaxam hamma qabrlardagi gullarni ko`p vaqtini ketkazib bu qabrga olib kelgan...

KICKINA GARRY: Lekin hamma guldastalarga ularning ismlari yozilgan.... <<Lily va Jeymis, biz sizlar qilgan ishlarni unutmaymiz>>, <<Lily va Jeymis sizlarning o`limingiz...>>

VOLAN-DE-MORT: Men aybdorlik hisini his qilayapman, bu yerdagi havo boshdan oyoq aybdorlik hisi bilan to`yingan.

PETUNIYA XOLA (KICKINA GARRYga): Qoch. Bu yerdan qoch.

U uni tortib sudrar edi. Volan-de-Mort qo`li Potterlar qabridagi plita ustida havoga ko`tarildi, ortidan esa uning boshqa tana azolar ko`rinar edi. Uning yuzini ko`rinmas, lekin uning sharti ketib parti qolgan shakli qo`rqinchli shaklga kirib borar edi.

Men bilardim, bilardim bu xavfli ekanligini. Godrik Jarligidan tezroq ketishimiz kerak.

Kichkina Garryni saxnadan tortib ketar, lekin u Volan-de-Mortni ko`rish uchun o`girilib qaradi.

VOLAN-DE-MORT: Garry Potter meni ko`zlarimni hali ham ko`rayapsanmi?

Volan-de-Mort korjomasi ichidan Albus chiqib kelganida Kichkina Garry ko`zdan g`oyib bo`ladi. Umidsizlikka tushib qolgan u otasiga qo`lini cho`zib qoladi.

ALBUS: Dada... Dada...

Ilonlar tilidagi so`zlar eshitilardi.

U yaqinda. U yaqinda. U yaqinda.

Keyin ko`rinishni tuman qoplaydi.

Xona ortidan shivirlash eshitiladi. Garry hech qachon hech kim bilan adashtirmaydigan ovoz. Volan-de-Mort ovozini....

Gaaarry Potttttter.

UCHINCHI AKT, O`N UCHINCHI SAXNA

GARRY VA JINNI POTTERLAR

OSHXONASI

Garry juda ham yomon axvolda edi. U o`g`lini unga nima demoqchi bo`lganini bilmay serrayib qolgan edi.

JINNI: Garry? Garry? Nima bo`ldi? Sen baqirding...

GARRY: U to`xtamayapti. Tushlarim.

JINNI: Ular tez to`xtashini kutmagandim. Bu ancha qiyin vaqtlar bo`ldi va...

GARRY: Lekin Petuniya xolam bilan hech qachon Godrik Jarligida bo`lmaganman. Bu...

JINNI: Garry sen meni chindan ham qo`rqitayabsan.

GARRY: Jinni u hali ham shu yerda.

JINNI: Kim hali ham shu yerda?

GARRY: Volan-de-Mort. Men Volan-de-Mort va Albusni ko`rdim.

JINNI: Va Albusni?

GARRY: U aytdiki, Volan-de-Mort aytdiki: << Men aybdorlik hissini his qilayapman, bu yerdagi havo boshdan oyoq aybdorlik hissi bilan to`yingan.>>

Garry unga qaradi. Chandig`iga qo`lini tekkizdi. Uning yuzi burushib ketdi.

JINNI: Garry Albus avvalgiday xavf ostidami?

Garryning yuzi oqarib ketdi.

GARRY: O`ylaymanki hammamiz xavf ostidamiz.

UCHINCHI AKT, O`N TO`RTINCHI SAXNA

XOGVARTS, SLIZIRIN YOTOQXONASI

Skorpius Albusning kravati bosh tomoniga vaximali tarzda egilib oldi.

SKORPIUS: Albus...Psss...Albus.

Albus uyg'onmaydi.

Albus!

Albus shokggga tushgan holda uyg'onadi. Skorpius kuladi.

ALBUS: Qoyil. Bu eng yaxshi va umuman odamni vaximaga solmay uyg'otadigan usul.

SKORPIUS: Bilasanmi, juda ham g'alati ko'rinishi mumkinku lekin bir kun eng qo'rqinchli joy faqatgina tasavvur qilish mumkin bo'lgan joyda bo'lib men qo'rquvni yaxshiroq boshqara olayapman. Men - Qo'rqmas Skorpiusman. Men - Sovuqqon Malfoyman.

ALBUS: Yaxshi.

SKORPIUS: Men avvalari ustimdan qulflangan xonada bo'lish, doimiy jazolar meni sindirgan bo'lishi mumkin edi, lekin endi bu ular qilayotgan eng yomoni bo'lgan ekan, ular boshqa nima qilishlari mumkin edi? Voldining zamoniga qaytarib yuborish va ular meni qiynashiga qo'yib berishmi? Yo'q.

ALBUS: Meni qachonki yaxshi kayfiyatda bo'lganingda meni qo'rqitishni boshlaysan, buni bilasanmi?

SKORPIUS: Sexrli damlamalar darsida Roza oldimga kelib meni Nonbosh (bulkagolova) deganida uni quchib olishga tayyor edim. Yo'q nega endi tayyor edim, umuman aytganda men chindan ham uni quchishga harakat qildim, u esa meni boldiringa tepib yubordi.

ALBUS: Men qo'rqmaslik seni sog'liginga yaxshi ta'sir ko'rsatishiga ishonchim komil emas.

Skorpius Albusga o'ychan ifodali yuz bilan qaradi.

SKORPIUS: Albus sen umuman bu yerga qaytish qanday ajoyib ekanligini tasavvur qila olmasan. U joy umuman jirkanch edi.

ALBUS: Sen sal pal Polly Chapmanni yoqtirib qolganingni hisobga olmasak.

SKORPIUS: Sedrik umuman boshqa odamga aylanga edi – xavfli, yovuz. Mening otam esa unga nima buyurishsa shuni qiladigan shaxs. Menchi? Men boshqa Skorpiusni tanidim, tasavvur qilayapsanmi? O'ziga ishongan, yovuz, soxta, odamlar mendan qo'rqishar edi. Xuddiki barchamiz sinovdamiz va undan hech birimiz o'ta olmagandekmi.

ALBUS: Lekin sen hammasini o`zgartirding. Seni imkonning bor edi va vaqtni ortga qaytarishga erishding. Sen o`zingni qaytarishga erishding.

SKORPIUS: Faqatgina men aslida qanday bo`lishi kerakligini bilganim uchundir.

Albus chuqur o`yga toladi.

ALBUS: O`ylashingcha meni ham sinashdimi? Men sinovni boy berdim, shundaymi?

SKORPIUS: Yo`q. Hali emas.

ALBUS: Adashayapsan. O`tmishga qaytmaslikning o`zi axmoqlik bo`lar edi, hamma ham xato qiladi, o`tmishga ikki marta qaytish uchun o`ziga yetarlicha ishonch bo`lishi bu axmoqlik.

SKORPIUS: Ikkimiz ham u yerga qaytdik, Albus.

ALBUS: Lekin men nima uchun shunday qat`iy ruhiy axvolda edim? Sedrik? Naxotki? Yo`q. Meni maqsadim nimanidir isbotlash bo`lgan. Otam xaq: u sargo`zasht qidirmagan, menku...bu...bu hammasi meni aybim. Agarda sen bo`lmaganingda barcha jaxolat tubiga tushib ketgan bo`lar edik.

SKORPIUS: Lekin bu bo`lmadiku. Keyin bu minnatdorchilikka sen mendan kam xizmat qilmading. Dementorlar meni miyamga kirib olishganida Severus Sneyp menga sen haqingda o`ylashim kerakligini aytdi. Sen u yerda bo`lmagan bo`lishing mumkin, Albus, lekin sen u yerda men bilan yelkama yelka olishding.

Albusga bu so`zlar tegib ketib boshini silkitdi.

Sedrikni qutqarish bilasan umuman olganda yomon fikr bo`lmagan edi. Shunday ekan tushunasanku biz boshqa bu ishga harakat qilmasligimiz kerak.

ALBUS: Ha albatta. Albattada tushunaman buni.

SKORPIUS: Yaxshi. Unda menga buni yo`q qilishimda yordam ber.

Skorpius Albusga Vaqt chig`irig`iini ko`rsatadi.

ALBUS: Men hammaga uni ko`l tubida yo`qotib qo`yganingni aytganinga ishonchim komil edi.

SKORPIUS: Bundan chiqadiki Sovuq qon – Skorpius ajoyib yolg`onchiga o`xshaydi.

ALBUS: Skorpius... Biz kimgadir bu haqida aytishimiz kerak...

SKORPIUS: Kimga? Vazirlik har doim buni sir saqlashgan va buni yana qilishni davom ettirmaydi deb o`ylaysanmi? Faqat men va sen buni qanchalik xavfli narsa ekanligini bilib oldik, shunday ekan men va sen uni yo`q qilishimiz kerak. Hech kim biz qilgan ishni qaytarmasligi kerak. Hech kim. Yo`q. (Ulug`vor ohangda) O`tmish sayohatiga nuqta qo`yish vaqti keldi.

ALBUS: Sen bu so`zlaring bilan juda ham faxrlanayotganga o`xshaysan, shundaymi?

SKORPIUS: Kun bo`yi mashq qildim.

UCHINCHI AKT, O`N BESHINCHI SAXNA XOGVARTS, SLIZIRIN YOTOQXONASI.

Garry va Jinni tezlik bilan Slizirin yotoqxonasiga ko`tarilishardi. Ularning ortidan Kreyg Bouker-Kichkina kelayapti.

KREYG BOUKER JR: Nima men yana qaytarishim kerakmi? Bu qoidalarga zid va hozir yarim tun.

GARRY: Men o`g`limni topishim kerak.

KREYG BOUKER JR: Men sizni kimligingizni bilaman Janob Potter lekin hech bo`lmasa siz ham ota-onalar va professorlar kollejning umumiy yotoqxonalariga maxsus ruxsatnomasiz...

Ularning ortida Professor Makanagal paydo bo`ladi.

PROFESSOR MAKANAGAL: Iltimos Kreyg asabga tegmay turing.

GARRY: Biz yuborgan maktubni oldingizmi? Yaxshi.

KREYG BOUKER JR (xijolatga tushgan holatda): Direktor xonim, men shunchaki... men shunchaki...(Garry krovat pardasini tortadi.)

PROFESSOR MAKANAGAL: U yo`qmi?

GARRY: Ha.

PROFESSOR MAKANAGAL: Yosh Malfoy hammi?

Jinni uning krovati pardasini tortadi.

JINNI: O, yo`q.

PROFESSOR MAKANAGAL: Unda maktabni tubidan yuqori qismigacha ag`dar to`ntar qilib tekshirish kerak. Kreyg bunday qilish kerak...

Jinni va Garry qolishadi va krovatga qarashadi.

JINNI: Seningcha biz bu yerda avval bo`lmaganmidik?

GARRY: O`tgan safargidan ham yomonroq narsani sezyapman.

Jinni turmush o`rtog`iga qo`quv bilan qaraydi.

JINNI: Sen bungacha u bilan gaplashdingmi?

GARRY: Ha.

JINNI: Sen uning yotog`iga kelding va u bilan gaplashdingmi?

GARRY: Buni bilib turibsan, ha.

JINNI: O`g`limizga nima deding Garry?

Garry uning ovoqidagi titroqni sezadi.

GARRY: Men sen aytganday xolis bo`lishga harakat qildim... men hech qanday yomon narsani gapirmadim.

JINNI: Sen o`zingni nazorat qila oldingmi? Qanchalik keskinlikda o`tdi hammasi?

GARRY: ... o`ylamaymanki...nima men... Sen yana men uni qo`rqitib yuborgan deb o`ylaysanmi?

JINNI: Garry men seni bitta xatoyingni kechirishim mumkin, balkim ikkitadir, lekin sen qancha ko`p xato qilsang men seni kechirishim shunchalik qiyin bo`layapti.

UCHINCHI AKT, O`N OLTINCHI SAXNA XOGVARTS, BOLAXONA (BOYQUSHLAR YASHASH MINORASI)

Albus va Skorpius kumush rangga g`arq bo`lgan cha tomda paydo bo`lishdi. Ularning atrofida boyqushlarning tinchgina uvillashi eshitilib turar edi.

SKORPIUS: O`ylashimcha oddiygina Konfringo (Yonib ket) afsuni to`g`ri keladi.

ALBUS: Umaman yo`q. Bunaqa maxsus narsalar uchun Ekspulso to`g`ri keladi.

SKORPIUS: Ekspulso? Undan keyin biz butun minora bo`ylab sochilib ketgan qoldiqlarni bir necha kunda yig`ib olamiz

ALBUS: Bombarda (portlab ket)?

SKORPIUS: Butun Xogvartsni uyg`otish uchunmi? Balkim Stupefaydir. Ularni avval Stupefay bilan yo`q qilishgan edi (germiona va boshqalar yo`q qilgan edi esingizda bo`lsa.)

ALBUS: Xuddi ana shu afsun bilan yo`q qilishgan edi. Kel umuman yangi quvonchliroq narsani o`ylab topamiz.

SKORPIUS: Quvonchliroq? Quloq sol ko`plab afsungarlar to`gri afsunni tanlashga o`ylanib o`tirmaydi, lekin bu chindan ham muhim narsa. O`ylashimcha bu umuman zamonaviy afsungarlikning umuman tadqiq etilmagan qismi.

DELFI: “zamonaviy afsungarlikning umuman tadqiq etilmagan qismi” siz ikkingizning tengingiz yo`q, shundan xabardormisiz?

Skorpius o`girilib qaraydi va orqada Delfi paydo bo`lganligidan hayratga tushadi.

SKORPIUS: Oxoo...emm...Sen bu yerda nima qilayapsan?

ALBUS: Men unga boyqush jo`natib unga biz nima qilmoqchi ekanligimizni bilishi kerak deb xisobladim, tushunayapsanmi?

Skorpius do`stiga norozilik bilan qarab qo`ydi.

Bu unga ham taalluqliku.

Skorpius o`ylab qoladi va maqullab javobini qabul qiladi.

DELFI: Nima menga taalluqli? Gap nima haqida borayapti?

Albus Vaqt chig`irig`ini oladi.

ALBUS: Vaqt chig`irig`ini yo`q qilishimiz kerak. Skorpius ikkinchi shartdan keyin ko`rgan narsalari... Juda ham afsusdaman, lekin boshqa tavakkal qila olmaymiz. Biz sening jiyaningni qutqara olmaymiz.

Delfi Vaqt chig`irig`iga keyin esa ularga qaraydi.

DELFI: Maktubda kam narsa yozilgan edi...

ALBUS: Eng yomon ko`rgan hayotingni tasavvur qil keyin uni ikkiga ko`paytir. Odamlarni azoblashayapti, hamma joyda dementorlar yurishadi, Volan-de-Mort terrori, mening otam o`lgan, biz tug`ulmaganmiz, butun dunyoda Qora Jodu.... Biz

shunchaki buni sodir bo`lishiga yo`l qo`ya olmaymiz.

Delfi ishonqiramaydi, lekin keyin yuz ifodasi o`zgaradi.

DELFI: Volan-de-Mort hukmronligi? U tirikmidi?

SKORIPUS: U hammani boshqarar edi. Bu juda ham yoqimsiz qo`rqinchli edi.

DELFI: Bularning barchasi biz amalga oshirgan ishlar tufaylimi?

SKORIPUS: Sedrikni yerga urish uni yomon shaxsga aylantirib qo`ydi, keyin esa u O`limdan Miriquvchilarga qo`shiladi, keyin... keyin... hammasi juda yomon bo`lib ketdi. Juda ham yomon.

Delfi ehtiyotkorlik bilan Skorpiusning ko`ziga qaraydi. Uning yuz ifodasi o`zgaradi.

DELFI: O`limdan Miriquvchi?

SKORIPUS: Va qotil. U Professor Dolgopupsni o`ldiradi.

DELFI: Unda... albatta... uni chindan ham yo`q qilishimiz kerak ekan.

ALBUS: Sen buni tushunasan a?

DELFI: Men undan ham o`tadigan narsani: Sedrik ham buni tushungan bo`lar edi demoqchiman.

ALBUS: Rahmat.

Delfi g`amgin kulib qo`yadi va Vaqt chig`irig`ini oladi, unga tikiladi. Uning yuz ifodasi osongina o`zgaradi.

O juda ham yaxshi rasm ekan.

DELFI: Nima?

Uning korjomasining orqa yelkasida bargsiz tayoqdagi Avgureyaning sur`ati ko`chirib tushurilgan edi.

ALBUS: O yelkangdagi. Avval payqamagan ekanman. Qanotlar. Bu magllar tatu deb ataydigan narsami?

DELFI: O ha. Bu Avgureya.

SKORIPUS: Avgureya?

DELFI: Ha siz Sexrli Xayvonlar parvarishi darsidan bunday maxliqqa hali yetib

kelmadingizmi? Bu yovuz qora qush yig`laganda yomg`ir yog`ishini bashorati hisoblanadi. Ko`plab afsungarlar esa Avgureya o`limni bashorati bo`lganda yig`laydi deb hisoblashadi. Mening vasiyim kichkinaligimda shunaqa qush olgan edi.

SKORIPUS: Sening....vasiying?

Delfi Skorpiusga qaraydi endi Vaqt chig`irig`I uning qo`lida ekanligida u bu o`yindan rohat olar edi.

DELFI: Ular meni qo`rqinchli kelajagim haqida bashorat qilayotganini aytishni yoqtirishardi. Men unga unchalik ham yoqmas edim. Eufemiya Rouli... u menga faqat pul tufayligina qarar edi.

ALBUS: Unda nega sen uning qushini tatu qilib olding?

DELFI: Bu menga kelajak mening qo`limda ekanligini eslatib turadi.

ALBUS: Zo`rku. Balkim men ham xuddi shunday tatu qilib olarman.

SKORIPUS: Rouli O`limdan Miriquvchilarning qo`shiq aytuvchisi bo`lgan.

Skorpiusning miyasida minglab fikrlar g`ujg`on o`ynar edi.

ALBUS: Kelinglar endi buni yo`q qiladigan payti bo`ldi...Konfringo? Stupefay? Bombarda? Nimani qo`llagan bo`lardingiz?

SKORIPUS: Ber buyoqqa. Vaqt chig`irig`ini bizga ber.

DELFI: Nima?

ALBUS: Skorpius? Nimalar qilayapsan?

SKORIPUS: Men seni kasal bo`lganingga ishonmayman. Nima uchun Xogvartsda o`qimaganсан? Nima uchun hozir bu yerdasan?

DELFI: Men o`z jiyanimni qaytarish uchun shu yerdaman!

SKORIPUS: Ular seni Avgureya deyishar edi. Boshqa dunyoda ular seni Avgureya deb atashar edi/

Delfining yuzida sekin astalik bilan tabassum paydo bo`la boshladi.

DELFI: Avgureya? Menga yoqqan bo`lar edi.

ALBUS: Delfi?

U juda ham chaqqon edi. Sexrli tayoqchasi yordamida Skorpiusga xujum qildi, u

Skorpiusga nisbatan kuchli edi. Skorpius xujumni qaytarishga harakat qilardi, Delfi uni tezda kuchdan qoldirdi.

DELFI: Fulgari!

Skorpiusning qo'llari pishiq yaltiroq iplar bilan bog'lanib qoldi.

SKORIPUS: Albus qoch!

Albus karaxt axvolda qaradi. Keyin qochdi.

Bu mening miyamga kelgan sizlarga qo'llamoqchi bo'lgan birinchi afsun edi. O'ylashimcha bundan ham yaxshirog'iga almashtirish kerak. Lekin sizlarni Amosga qaraganda boshqarish juda oson.... Bolalar deyarli katta bolalar, ko'ngilchang shunday emasmi? Endi kelinglar bularning barchasini bir bor va oxirgi marta muhokama qilib olamiz....

ALBUS: Nima? Lekin nima uchun? Lekin sen kimsan?

DELFI: Albus men – yangi o'tmishman.

U Albusning tayoqchasini oladi va qarsillatib sindiradi.

Men – yangi kelajakman.

U Skorpiusning tayoqchasini oladi va uni ham qarsillatib sindiradi.

Men – bu dunyo qidirayotgan javobman.

UCHINCHI AKT, O'N YETTINCHI SAXNA

SEXRGARLIK VAZIRLIGI, GERMIONANING XONASI

Ron Germionaning stolida o'tirib suli bo'tqasini yerdi.

RON: Men umuman o'zinga bunday haqiqatni tasavvur ham qila olmayman. Qaysiki biz sen bilan turmush qurmagan dunyoni aytayapman.

GERMIONA: Ron u yerda nima bo'lishidan qat'iy nazar hozir huzurimga o'n daqiqada Gringottsni himoyasi bo'yicha Goblin kelishi kerak...

RON: Men aytishni xoxlardimki... biz juda uzoq vaqt birga bo'ldik. Keyin biz ancha oldin turmush qurganmiz. Men juda uzoq vaqtni nazarda tutayapman.

GERMIONA: Agar sen ajrashish uchun ariza bermoqchi ekanliging haqida aytmoqchi bo'lsang, Ron, ochiqroq gapiraver: men mana shu patqalamimni sanchib olaman.

RON: Ovozingni o'chire. Birpas bo'lsa ham jim tura olasanmi? Men avval o'qigan nikohni qayta mustahkamlash degan narsani qilmoqchiman. Nikohni qayta o'qitish. Sen bu haqida nima deb o'ylaysan.

GERMIONA (ozgina erib): Sen menga yana uylanmoqchimisani?

RON: Biz birinchi marta nikohimizda juda yosh bo'lganmiz, keyin men ozgina mast edim va... Rostini aytsam men uni katta qismini eslay olayman, nima bo'lgan edi, shunday ekan... Haqiqat shundaki men seni sevaman, Germiona Grenjir, keyin men buni avval aytganim hech qanday ahamiyatga ega emas. Men buni boshqa bir dunyo odam yonida aytish imkonini paydo qilmoqchiman. Yana bir bor. Qat'iy ravishda.

Germiona unga qaraydi, tabassum qiladi, uni o'ziga tortadi va bo'sa oladi.

GERMIONA: Sen mazalisan.

RON: Sen esa maza bobida iriska tamidasan.

Germiona kuladi. Garry, Jinni va Drako ular yana bir birlaridan bo'sa olayotgan ayni daqiqada kirib kelishadi. Ular bir biridan uzoqlashishadi.

GERMIONA: Garry, Jinni...emm... Drako... sizlarni ko'rganimdan xursandman.

GARRY: Tushlar. Ular yana boshlandi va endi ular to'xtamayapti.

JINNI: Va Albus yo'qolib qoldi. Yana.

DRAKO: Skorpius ham. Biz Professor Makanagaldan maktabni tekshirishini so'radik. Ular yo'qolib qolishdi.

GERMIONA: Men darxol Avrorlarga xabar beraman...

RON: Yo'q buni qilishing shart emas. Hammasi joyida. Men Albusni o'tgan tunda ko'rdim va unda hammasi joyida edi.

DRAKO: Qayerda?

Hamma Ronga qaradi, u ozgina hijolat chekdi va to'xtamasdan gapira boshladi.

RON: Biz Nevil bilan xuddi sizlar qiladiganday Xogsmidning kuydiruvchi viskilaridan ichar edik. Biz odatdagiday dunyoviy muammolardan gaplashdik.

Keyin tarqalishdik. To`g`risi kech, juda ham kech edi. Keyin uchuvchi porixlar bilan ortga qaytmoqchi bo`ldimu, lekin undan foydalana olmadim. Chunki ba`zida shunday bo`ladiki, qachonki mast bo`lsang siqishni, g`ijimlashni xoxlamay qolasan...

JINNI: Ron biz seni hammamiz birgalikda bo`g`ib o`ldirishimizdan oldin hikoyangni tugata olasanmi?

RON: U qochib ketmadi – u shunchaki odamlardan yolg`iz qolgisi kelgan. O`zidan katta dugonasi (qiz o`rtog`i) bilan...

GARRY: O`zidan katta dugonasi (qiz o`rtog`i) bilan?

RON: Birinchi darajali ajoyib kumush rang sochli xonim bilan. Men ularni tomda ko`rdim, Bolaxona yaqinida birgalikda Skorpius bilan. Men unga bergan sevgi damlamasidan to`g`ri foydalanganini ko`rish yoqimli.

Garryning o`ylanib qoladi.

GARRY: Uning sochlari. Uning sochlari moviy – kumush rangli emasmi?

RON: To`ppa to`g`ri: kumush rang. Va moviy. Axa.

GARRY: U Delfi Diggori haqida gapirayapti. Amos Diggorining jiyani.

JINNI: Bu yana Sedrik atrofida to`planayaptimi?

Garry javob bermas lekin miyasi tezroq ishlay boshlaydi. Germiona xonani halovati buzilib kuzatib chiqdi, keyin qabuldagilarga qarab baqirdi.

GERMIONA: Etel! Goblin bilan uchrashuvni bekor qil.

UCHINCHI AKT, O`N SAKKIZINCHI SAXNA

MUQADDAS OSVALD NOMIDAGI QARI AFSUNGARLAR VA JODUGARLAR UCHUN QARIYALAR UYI, AMOSNING XONASI

Xonaga sexrli tayoqchasini shay holatda ushlab kelayotgan Garry , uning ortidan esa Drako kiradi.

GARRY: Ular qani?

AMOS: Garry Potter sizga qanday yordam bera olaman, janob? Yana Drako Malfoy ham shu yerda. Xudoning marhamatini qarang.

GARRY: Men o`g`limdan qanday foydalanayotganingizni bilaman.

AMOS: Men sizning o`g`lingizdan foydalandimmi? Yo`q, bu siz mening ajoyib o`g`limdan foydalangan.

DRAKO: Tezda bizga Skorpius bilan Albusning qayerdaligini ayting. Aksincha qiladigan bo`lsangiz oqibati yomon bo`ladi.

AMOS: Lekin men ular qayerda bo`lishi mumkinligini qayerdan bilaman?

DRAKO: Qariya biz bilan o`yin o`ynama. Biz sizlar boyqush almashib turishingizni yaxshi bilamiz.

AMOS: Men unaqa ishlar qilmadim.

GARRY: Amos Azkaban uchun unchalik qarilik qilmaysiz. Ularni yo`qolishidan oldin Xogvartsdagi minorada sizning jiyaningiz bilan ko`rishgan.

AMOS: Men umuman sizlar nimani nazarda tutayotganingizni tushun...(U jim bo`lib qoldi, birdan miyasiga uradi.) Mening jiyanim?

GARRY: Va hech qanday sabab sizni u yerda joylashishingizga to`squinlik qila olmaydi.... Ha sizning jiyaningiz. Siz uni Xogvartsga sizning buyrug`ingiz bilan borganini tan olmaysiz....

AMOS: Ha tan olmayman: meni hech qanday jiyanim yo`q.

Bu Garryni to`xtatib qoladi.

DRAKO: Yo`q u mavjud – u sizga qarovchi bo`lib ishlaydi. Sizning jiyaningiz.... Delfini Diggori.

AMOS: Men ishontirib aytishim mumkinki, meni hech qanday jiyanim yo`q, chunki meni aka-ukam ham , opa-singlim ham bo`lmagan, xuddi rafiqamdek.

DRAKO: Biz tezda uni kimligini aniqlashimiz kerak!

UCHINCHI AKT, O`N TO`QQIZINCHI SAXNA

XOGVARTS, KVIDISH MAYDONI

Delfini uning shaxsiyati aniqlashgani har daqiqasidan rohatlanar edi. Avvalari u noqulay va qaltis sharoitda edi, hozirchi nihoyat u hukmronligidan rohat olishi mumkin.

ALBUS: Biz kvidish maydonida nima qilayapmiz?

Delfi hech narsa demaydi.

SKORPIUS: Uch Sexrgar Musobaqasi. Uchinchi bosqich. Labirint. Biz o`sha labirint joylashgan joydamiz. Biz Sedrik tufayli yana o`tmishga qaytamiz.

DELFI: Ha ortiqcha to`siqlarni olib tashlash vaqti keldi. Biz o`tmishga Sedrik uchun qaytamiz va sen Skorpius ko`rgan dunyoni tiklaymiz....

SKORPIUS: Bu do`zax edi. Sen do`zaxni yana qayta tiklamoqchisanmi?

DELFI: Men toza va kuchli sexrni qaytarmoqchiman. Men zulmatni qayta tiklamoqchiman.

SKORPIUS: Volan-de-Mortni qaytarishni xoxlaysanmi?

DELFI: U butun dunyoni boshqarish uchun eng munosib nomzod. U qaytadi. Siz o`zi o`tmishda birinchi ikkita bosqichida bo`ldingiz va afsunlar bilan ozgina sho`xlik qildingiz – ularning har birida o`rtacha kelajakdan ikki marta tashrif bo`ldi va men meni fosh etishlarini yoki menga e`tabor qaratishlarini istamayman. Uchinchi bosqich hali top toza, shunday ekan undan boshlaymiz, qarshi emasmisiz?

ALBUS: Sen bizni nima qilishga majbur qilmagin biz uni to`xtatmaymiz, endi biz u otam bilan Musobaqada birgalikda yutib chiqishi kerakligini bilamiz.

DELFI: Menga esa uni to`xtatib qolishlaring umuman keragi yo`q. men sizlar uni taxqirlashingizni xoxlayman. Mayli u labirintdan binafsha rang patlardan tayyorlangan supurgi ustida yalang`och chiqib ketsin. Uni taxqirlash bizni birinchi matrasida birinchi dunyoga tushib qolishimizga sabab bo`lgan edi, u ikkinchi marta ham qo`l keladi. Va bashorat ham amalga oshadi.

SKORPIUS: Birinchi marta eshitishim qandaydir bashorat bo`lganligi haqida, u qanday bashorat?

DELFI: Skorpius sen ko`rgan dunyo aslida bo`lishi kerak bo`lgan dunyodir. Biz bugun uni qaytishini ta`minlaymiz.

ALBUS: Yo`q biz senga bo`ysunmaymiz. Sen kim bo`lsang ham. Bizga nima qilmoqchi bo`lsang ham.

DELFI: Albatta bo`ysunasiz.

ALBUS: Unda bizga nisbatan IMPERIONi qo`llashinga to`g`ri keladi. Faqatgina shunda meni nazoratingda ushlab tura olasan.

DELFI: Yo`q. bashoratni amalga oshirishim uchun menga sen keraksan, qo`g`irchoq emas... sen Sedrikni taxqirlaganlardan birisan, shunday ekan menga IMPERIONi keragi yo`q. Men seni boshqa yo`l bilan bo`ysundiraman.

U tayoqchasini chiqaradi. Tayoqchasini u iyagini ko`tarayotgan Albusga o`qtaydi.

ALBUS: Qo`lingdan hech narsa kelmaydi.

Delfi unga sinchiklab qaraydi. Keyin u tayoqchasini Skorpiusga o`qtaydi.

DELFI: Qo`limdan keladi.

ALBUS: Yo`q!

DELFI: Ha bu seni juda ham qo`rqitib yuboradi deb o`ylayman.

SKORPIUS: Albus u menga nima qilishidan qat`iy nazar biz unga bunday....

DELFI: KRUSIO!

Skorpius og`riqdan qichqiradi.

ALBUS: Men...

DELFI (kulib): Nima? Sen chindan ham nimadir qila olaman deb o`ylaysanmi? Seni butun sexrgarlik olamining umidimisan? Sen oilang nomining illatimasmisan? Bo`shliqmasmisan? Keyin sen o`zingning yagona do`stingni qiynashimga xalaqit bermoqchimisan? Unda men senga nima buyursam shuni qilasan!

U Albusga qaraydi. Uning qarashi qat`iy edi.

Yo`qmi? Krusio!

ALBUS: Bo`ldi iltimos!

Kreyg g`ayrat bilan yugurib kelardi.

KREYG BOUKER JR: Skorpius? Albus? Hamma sizlarni qidirayapti...

ALBUS: Kreyg! Qoch! Yordamga chaqir!

KREYG BOUKER JR: Bu yerda nimalar bo`layapti?

DELFI: Avada Kedavra!

Delfining tayochasidan yashil yashin uchib chiqadi. Yashin Kreygning oyog`iga tegadi va uni o`ldiradi. Sukunat cho`kadi. Sukunat butun umr davom etadiganday tuyildi.

Hali ham tushunmayapsizmi? Biz bu yerda bolalar o`yini o`ynayotganimiz yo`q. siz menga keraksiz, do`stlaringiz emas.

Albus va Skorpius qo`rquv bilan Kreygning jonsiz tanasiga qarashdi.

Menga sening nozik tomoningni topishga ko`p vaqt kerak bo`ldi, Albus Potter. Birinchi bu kibr deb o`yladim, otasining tasiri deb, lekin keyin sening nozik tomoning otang kabi do`stlik ekanligini tushundim. Sen men aytgan har qanday ishni qilasan, aks holda Skorpius o`ladi. Mana bu notavon kabi.

U ikkalasiga ham qaraydi.

Volan-de-Mort qaytadi va Avgureya u tomonda bo`ladi. Xuddi bashoratda aytilganidek. "Qachonki ortiqcha odamlar yo`ldan olib tashlanganida, qachonki vaqt ortga qaytganda, qachonki ko`rinmas farzandlar o`z otalarini o`ldirganda: shunda Yovuz Lord qaytadi".

U kuladi. U tezlik bilan Skorpiusni o`ziga tortib oladi.

Sedrik bu ortiqcha odam, Albus esa...

U Albusni ham xuddi shunday tezlikda o`ziga tortib oladi.

Eslab ko`rsak ko`rinmas farzand va Yovuz Lordni qaytaruvchi odam.

Vaqt chig`irig`i titrashni boshladi. U ularni unga tegishga majbur qildi.

Hoziroq!

Katta chaqnash va quloqni qomatga keltiradigan darajada shovqin sodir bo`ladi. Vaqt to`xtab qoladi. Keyin u ochiladi, soniyaga qotib qoladi va ortga qarab aylanishni boshlaydi. Birinchi sekin....

Keyin tortib ketayotganday ovoz eshitildi. Va gumburlash.

UCHINCHI AKT, YIGIRMANCHI SAXNA

UCH AFSUNGAR MUSOBAQASI, LABIRINT, 1995-YIL

Labirint harakat qilishga qo`ymaydigan buralib o`sgan spiral shakldagi jonli butalar bilan o`ralgan edi. Delfi ular orasidan qat`iy odimlab borar edi. U ortidan Albus va Skorpiousni tortib kelar edi. Ularning qo`llari bog`langan, oyoqlari esa ularning xoxishlariga qarshi qadam bosar edi.

LYUDO BEGMAN: Xonimlar va janoblar, yigitchalar va qizaloqlar, men sizlarning e`tiboringizga qoyil maqom, ajoyib, yagona va takrorlanmas Uch Afsungar Musobaqasini taqdim qilaman!

Gulduros qarsaklar yangraydi! Delfi chapga buriladi.

Agar siz Xogvartsda taxsil olsangiz, qarsak chaling!

Gulduros qarsaklar yangraydi.

Agar siz Durmshtangda taxsil olsangiz, qarsak chaling!

Va agarda siz Sharmbatonda taxsil olsangiz, qarsak chaling!

Avvaldan mashq qilingan qarsaklar yangraydi.

Delfi va bolakaylar yurishni davom ettirishar, bu vaqtda butalar ular ortidan yopilar edi.

Fransuzlar nihoyat o`zlarini nimaga qodir ekanliklarini bizga ko`rsatishdi. Xonimlar va janoblar men sizlarni Uch Afsungar Musobaqasining final bosqichi sharti bilan tanishtiraman. Qarshingizda butunlay sir sinoatga to`la va hech narsani ko`rib bo`lmaydigan zimiston bilan o`raglan, lekin ular uchun labirint hayot bilan qaynaydi. U jonlanadi.

Viktor Krum saxnaga kirib keladi va labirintga jadal qadam tashlab kirib ketadi.

Bu jonlanayotgan daxshatlardan o`tib nima uchun tavakkal qilish kerak? Chunki labirint ichida sovrin bor va bu sovrin oddiy sovrin emas, ha to`g`ri Uch Afsungar Musobaqasining bosh sovrini mana shu chakalakzorning qayerigadir yashirilgan.

DELFI: Qani u? Sedrik qani?

Butalar endi Skorpious va Albusni teng ikkiga bo`lib yuborayotgan edi.

SKORPIUS: Endi butalar ham bizni o`ldirmoqchimi? Borgan sari yaxshi, juda

yaxshi bo`lib ketayapti.

DELFI: Tezlashinglar yoki tirik qolmaysiz.

LYUDO BEGMAN: Xavf xatar juda ham ko`p, lekin sovrinni his qilishadi. Kim yo`lni boshidan oxirigacha bosib o`tar ekan? Kim final to`siqlarini yengib o`tar ekan? Bizning qahramonlardan qaysi biri o`rtaga bora olar ekan? Vaqt ko`rsatadi, xonimlar va janoblar, vaqt ko`rsatadi.

Ular labirint ichkarisiga qarab yurishar edi. Skorpion va Albus esa Delfining ortidan majburan borishardi. U qachonki oldinroqqa o`tib ketsa ularda gaplashishga imkoniyat tug`ular edi.

SKORPIUS: Albus biz nimadir qilishimiz kerak.

ALBUS: Bilaman lekin nima qilamiz? U bizning tayoqchamizni sindirib tashlagan, qo`llarimiz bog`langan va seni hayotingga taxdid solayapti.

SKORPIUS: Men agar Volan-de-Mortning qaytishini to`xtatsa o`lishga tayyorman.

ALBUS: O`lishga tayyorsan?

SKORPIUS: Menga aza tutib yig`lashing uchun ko`p vaqting bo`lmaydi. Meni o`ldirishi bilan darrov seni ham o`ldiradi.

ALBUS (umidsizlik bilan): Soatni kamchiligi bor – faqat besh daqiqa. Biz bor imkoniyatimizni sarf qilib ko`p vaqtни yo`q qilishga harakat qilishimiz kerak.

SKORPIUS: Bu ish bermaydi.

Yana bitta buta yo`nalishni o`zgarttiradi, Delfi Skorpion va Albusni o`z ortidan sudrab ketayapti. Ular labirint bo`ylab jadal harakatlanishardi.

LYUDO BEGMAN: Endi esa men hozirgi holatni eslatib qo`yishimga imkon bergaysiz! Birinchi o`rinni Janob Sedrik Diggori va Janob Garry Potter egallab turishibdi. Ikkinchi o`rinni esa Janob Viktor Krum! Va uchinchi o`rinni Fler Delakur Xonim egallab turibdi!

To`satdan butalar orasidan chiqishgan Skorpion va Albus yugurishni boshlashadi.

ALBUS: U qayerga daf bo`ldi?

SKORPIUS: Bu muhimmi? Endi nima qilamiz?

Delfi ular ustida turar edi. U hech qanday supurgisiz ham ucha olar edi.

DELFI: Bechora bolakaylar.

U bolalarni yerga ulqtiradi.

Menga xalaqit qilaman deb o`yladilarmi?

ALBUS (hayratda): Sen...Supurgida ham emassan.

DELFI: Supurgi – beo`xshov va foydasiz moslama. Uch daqiqa o`tdi. Yana ikki daqiqa qoldi. Endi esa nima aytsam shuni qilishingizga to`g`ri keladi.

SKORPIUS: Yo`q bajarmaymiz.

DELFI: Siz chindan ham meni yenga olaman deb o`ylayapsizmi?

SKORPIUS: Yo`q. Lekin biz senga qarshi chiqshimiz mumkin. Buning baxosi bizning hayotimiz bo`lsa ham.

DELFI: Bashorat amalga oshirilishi kerak. Biz buni amalga oshiramiz.

SKORPIUS: Bashoratni o`zgartirish mumkin.

DELFI: Sen adashasan, bola, bashorat bu kelajakdir.

SKORPIUS: Agar bashorat so`zsiz amalga ohsa unda nega biz bu yerdamiz va nega bunga ta`sir qilishga harakat qilayapmiz? Sening harakatlaring sening ishonchingni inkor qilayapti: sen bizni bu labirint bo`ylab sudrab yuribsan chunki sen bashoratni amalga oshirish kerak deb o`ylaysan va agar bu fikrga asoslanadigan bo`lsak uni buzish yoki umuman to`xtatish mumkin.

DELFI: Sen juda ham ko`p gapirayapsan, bola. Krusio!

Skorpius og`riqdan dodlab yuboradi.

ALBUS: Skorpius!

SKORPIUS: Sen sinovni xoxlagan eding, Albus, mana u va biz undan o`tishimiz kerak.

Albus Skorpiusga qaraydi. Va u nihoyat nima qilishi kerakligini tushunadi. U bosh irg`itadi.

DELFI: Unda sizlar o`lasizlar.

ALBUS (to`lib toshgan dadillik bilan): Ha. Biz o`lamiz. Lekin biz bu seni to`xtatganini tushunib baxtiyor holatda o`lamiz.

Delfi o`qday tepaga uchadi, u juda ham achchiqlanib ketgan edi.

DELFI: Bizni bunga vaqtimiz yo`q. Kru....

SIRLI OVOZ: Ekspeliarmus!

Tars! Delfining sexrli tayoqchasi qo`lidan uchib ketadi. Skorpius nima bo`lganini tushunmay unga qarab qoladi.

Braxiabindo!

Delfi boshdan oyoq bog`lanib qoldi. Skorpius va Albus bir vaqtning o`zida ortga burildi va afsun qayerdan kelgan bo`lsa o`sha tomonga hayrat bilan qarashardi: kelishgan yosh o`n yetti yoshli Sedrikni ko`rishdi.

SEDRIK: Yaqinlashmang.

SKORPIUS: Lekin sen...

SEDRIK: Sedrik Diggori. Men baqiriqni eshitdim shuning uchun keldim. O`zingizni tanishtiring, maxluqlar, men sizni yenga olaman.

Albus hayrat bilan o`girildi.

ALBUS: Sedrik?

SKORPIUS: Sen bizni qutqarding.

SEDRIK: Siz ham sinovning bir qismimisiz? To`siqmisizlar? Javob bering. Men sizni ham mag`lub qilishim kerakmi?

SKORPIUS: Yo`q. Sen bizni shunchaki ozod qilishing kerak. Mana shuni o`zi sinov.

Sedrik balkim bu tuzoq emasmikan deb o`ylab, tushunishga harakat qilayapti, keyin u tayoqchasini silkitadi.

SEDRIK: Emansipeyir! Emansipeyir!

Bolalar ozod bo`ladi.

Endi ketsam bo`ladimi Labirintdan o`tib tugatishim uchun?

Bolalar Sedrikka qarashadi... yurak urishi eshitlardi.

ALBUS: Men sen bu sinovni yakunlashing kerak deb qo`rqaman.

SEDRIK: Unda men ketdim.

Sedrik qat`iy ravishda nari ketadi. Albus uning ortidan qarab chin dilidan nimadir aytgisi keldi, nimaligini esa farqi yo`q.

ALBUS: Sedrik...

Sedrik unga o`girilib qaraydi.

Sening otang seni juda ham yaxshi ko`radi.

SEDRIK: Nima?

Ularning ortidagi Delfining tanasi harakatlana boshlaydi. U yerda o`rmlay boshladi.

ALBUS: Men shunchaki buni bilishing kerak deb o`yladim...

SEDRIK: Bo`pti. Hm...Rahmat.

Sedrik Albusga yana bir soniya qarab turdida keyin ketdi. Delfi korjomasi kistasidan Vaqt chig`irig`ini chiqaradi.

SKORPIUS: Albus.

ALBUS: Yo`q... to`xta.

SKORPIUS: Vaqt chig`irig`I ishga tushurildi...qara u nima qilayotganiga...u bizni o`tmishda qoldira olmaydi.

Albus va Skorpion soatni ushlab harakat qilishadi. Katta chaqnash va quloqni qomatga keltiradigan darajada shovqin sodir bo`ladi. Vaqt to`xtab qoladi. Keyin u ochiladi, soniyaga qotib qoladi va ortga qarab aylanishni boshlaydi. Birinchi sekina...

Lekin keyin tezlik bilan...

Albus...

ALBUS: Nima qilishimiz kerak?

SKORPIUS: Biz soatga qo`l tekkizib joylashib olishimiz, biz uni to`xtatishimiz kerak.

DELFI: Meni to`xtatish? Meni qanday to`xtatmoqchisiz? Men bunga chek qo`yaman. Balkim siz meni dunyoni zulmatga aylantirish uchun Sedrikdan foydalanish harakatlarimni puchga chiqargandirsiz, balkim Skorpion sen haqdirsan, balkim bashoratni to`xtatish, o`zgartirish mumkindir. Lekin munozarasiz haqiqat, men dunyodagi ikkita eng yoqimsiz va foydasiz qirchang`ilardan foydalanishga harakat qilganimdadir. Men endi sizlarga o`zimning birona qimmatbaxo vaqtimni sarflamayman. Qandaydir yangi narsani sinab ko`rish vaqti keldi.

U Vaqt chig`irig`ini sindiradi. U minglab mayda bo`lklarga bo`linib ketadi.

Delfi yana havoga ko`tariladi. U katta zavq shavq bilan kuladi va ortiga burilib ketadi.

Bolalar unga yetib olishga harakat qilishadi, lekin ularning kichkina bo`lsa ham imkoniyat yo`q edi.

ALBUS: Yo`q...yo`q...sen bunday qila...

Skorpius ortiga qaytadi va Vaqt chig`irig`ining bo`laklarini yig`ishga harakat qiladi.

ALBUS: Vaqt chig`irig`imi? U yo`q qilindimi?

SKORPIUS: Mutlaqo. Biz bu yerda qadalib qoldik. Makonda. Biz qanday makonga tushib qolgan bo`lsak ham. U nima qilishga harakat qilayotgan bo`lsa ham.

ALBUS: Xogvarts avvalgiday ko`rinayapti.

SKORPIUS: Ha shunday, lekin bizni bu yerda hech kim ko`rmasligi kerak. Bizni sezib qolishmaslaridan oldin bu yerdan juftakni rostlash kerak.

ALBUS: Biz uni to`xtatishimiz kerak Skorpius.

SKORPIUS: Bilaman, nima qilishimiz kerak – qanday?

UCHINCHI AKT, YIGIRMA BIRINCHI SAXNA

MUQADDAS OSVALD NOMIDAGI QARI AFSUNGARLAR VA JODUGARLAR UCHUN QARIYALAR UYI, DELFINING XONASI

Garry, Germiona, Ron, Drako va Jinni devorlari eman bilan ishlov berilgan oddiy xonani ko`zdan kechirishardi.

GARRY: Aftidan u unga Konfundusni qo`llab kelgan. Butun bu vaqtgacha qo`llagan. U uning qarovchisiga aylangan, u uning jiyaniga ham aylangan.

GERMIONA: Men butun Vazirlikni tekshirib chiqdim, lekin u yerda u haqida hech qanday ma`lumot topa olmadim. U shunchaki soya.

DRAKO: Gomenium Revelio!

Hamma burulib Drakoga qarashadi.

Bu juda ham yomon fikr edi, nimani kutgandingiz? Biz hech narsani bilmaymiz, shunday ekan biz bu xonada nimadir yashiringaniga umiq qilishdan boshqa choramiz yo`q.

JINNI: U bu yerning qayeriga ham yashirishi mumkin? Bu xona butunlay sparktakcha jihozlangan bo`lsa.

RON: Bu devorlar ortiga, bu devorlar ortiga nimadir yashirish mumkin...

DRAKO: Yoki krovat ostiga.

Drako krovat ostini tekshirishni, Jinni lampani ko`zdan kechira boshlaydi, qolganlar esa devorni ko`zdan kechirishardi.

RON (devorni taqqilatib baqiradi): Sen nimani yashirayapsan? Sen nimani xoxlayapsan?

GERMIONA: Balkim biz barchamiz bir daqiqaga to`xtab nima qilish haqida o`ylab...

Jinni moychiroqning kolbasini buraydi. U nafas chiqaradi. Keyin vishillash eshitiladi. Hamma shovqinga o`girilib qaraydi.

Bu nima edi?

GARRY: Bu... Men kutmagandim, buni bilaman – bu ilon tili.

GERMIONA: U nima deyapti?

GARRY: Qandaydir ma`noda... Men Volan-de-Mort o`lganidan beri uni tushunmay qolganman.

GERMIONA: Lekin shungacha ham chandig`ing og`rimay qolgan edi.

Garry Germionaga qaraydi.

GARRY: U “Hush kelibsan Avgureya” deyapti. Menimcha men uni ochilishi uchun nimadir deyishim kerak...

DRAKO: Unda ayt.

Garry ko`zini yumadi. U ilon tilida gapiradi.

Ular atrofidagi xona boshqa holatga kira boshlaydi. Xona yana ham zimistob yana ham zulmatga burkanadi. Devorda yozuvlar va ilon sur`ati paydo bo`la boshlaydi. Unda qizil kraska bilan yaltirayotgan bashorat yozilgan edi.

Bu nima?

RON: “Qachonki ortiqcha odamlar nobud bo`lganda, qachonki vaqt ortga qaytganda, qachonki e`tiborsiz qolgan bolalar o`z otalarini o`ldirganlarida: shunda Yovus Lord qaytadi.”

JINNI: Bu bashorat. Bu yangi bashorat.

GERMIONA: Sedrik... Ortiqcha bu Sedrik.

RON: Qachonki vaqt ortga qaytganda – u Vaqt g`alvirini qo`lga kiritgan, shundaymi?

Ularning yuzi hayratdan oqarib ketadi.

GERMIONA: Shunday bo`lishi kerak.

RON: Lekin unga Skorpion va Albusdan nima kerak bo`lgan?

GARRY: Chunki men o`zining farzandini e`tiborsiz qoldirgan otaman. O`z farzandimni tushunmadim.

DRAKO: U kim? Nimaga bunga buncha yopishib olgan?

JINNI: Menimcha biz buni bu yerdan bilib olamiz.

Hamma ortiga buriladi va u ko`rsatayotgan joyga yuqoriga qarashadi... Ularning yuzi yana ham hayratlanarli darajaga kelib qoladi va qo`rquvni aks ettiradi.

Xona devoriga yozilgan so`zlar – xavfli so`zlar, daxshatli so`zlar edi.

“Men zulmatni qaytaraman. Men o`z otamni ortga qaytaraman”.

RON: Yo`q... U bo`lishi mumkin emas...

GERMIONA: Bu qanday bo`lishi mumkin?

DRAKO: Volan-de-Mortning qizi bomidi?

Ularning qo`rqib ketishgani ko`rinib turar edi. Jinni Garryning qo`lidan ushlaydi.

GARRY: Yo`q,yo`q, yo`q. Faqat bu emas. Hamma narsa bo`lsin lekin bu emas.

Tanaffus.

TO`RTINCHI AKT

TO`RTINCHI AKT, BIRINCHI SAXNA

SEXRGARLIK VAZIRLIGI, ASOSIY

KONFERENSIYA ZALI

Har tomondan kelgan Sexrgarlar va Afsungarlar asosiy konferensiya zaliga kiritildi. Germiona naridan beri qurilgan tribunaga ko`tarildi. U tinchlik saqlanishini so`rab qo`lini ko`tardi. Tinchlik hukm sura boshlaydi. Uning bunday kichik harakatining muvaffaqiyatli amalga oshishi uni hayratlantirdi. U zalga qaraydi.

GERMIONA: Men Sizlar tufayli ko`pchiligingiz mening Navbatdan Tashqari Yig`ilishimga tashrif buyurganingizdan xursandman. Men sizlardan savollaringizni ichingizda saqlab turishingizni so`ragan bo`lar edim, chunki men aytmoqchi bo`lgan masaladan keyin ular sizlarda juda ham ko`p bo`ladi. Sizlarning ko`pchiligingizga ma`lumki, Xogvartsda murda topilgan. Uning ismi Kreyg Bouker. U yaxshi bola edi. Biz bunga aniq kim aloqadorligi haqida aniq ma`lumotlarga ega emasmiz, lekin kecha biz Avliyo Osvald nomidagi Qariyalar Uyini tekshirib chiqdik. Xonalarning birida ikkita narsa aniqlandi: birinchisi – zulmatning qaytishi haqidagi bashorat bo`lsa, ikkinchisi esa patalokka Yovuz Lordning, Volan-de-Mortning farzandi borligi haqida bayonot.

Yangilik zalda har xil aks sado beradi.

Biz hamma ma`lumotlarni bilmaymiz. O`limdan Miriquvchi bo`lgan har qanday shaxsga biz murojatnoma jo`natadik va so`roq qildik... va hozirgacha hech qanday rasmiy ma`lumot, tug`ulganligi haqida guvohnomani topa olmayapmiz u bola haqida ham, bashorat haqida ham, lekin hamma dalillar bunda haqiqat borligiga ishora qilayapti. Bu bola butun sexrgarlik olamidani yashirilgan va hozir u qiz... umuman aytganda u qiz hozir...

PROFESSOR MAKANAGAL: U? Qiz? Uning qizi bo`lganmi?

GERMIONA: Ha qiz.

PROFESSOR MAKANAGAL: U qo`lga olinganmi?

GARRY: Professor u gapini bo`lmasliklarini so`ragan edi.

GERMIONA: Hammasi joyida Garry. Yo`q professor, muammo mana shundan boshlanadida. Qo`rqamanki, bizning uni tutishimiz uchun hech qanday imkoniyat yo`q. Va uni nimadir qilishiga to`squinlik qilishimizda ham. U bizning qo`limiz yetmaydigan joyda.

PROFESSOR MAKANAGAL: Biz uni qidirib yo`lga chiqa olmaymizmi?

GERMIONA: Bizning barcha to`plagan dalillarimiz shuni ko`rsatadiki, u yashiringan... vaqt oralig`iga.

PROFESSOR MAKANAGAL: Barcha o`ylamay qilgan ishlaringiz ichida eng axmoqonasi Vaqt chig`irig`ini asrab qolganingizdir, keyin nima bo`ldi?

GERMIONA: Professor men sizni ishontirib aytishim kerakki....

PROFESSOR MAKANAGAL: Uyalishingiz kerak Germiona Grenjir.

Germiona g`azabli yuz ifodafi oldida chekinadi.

GARRY: Yo`q u bunga loyiq emas. Sizning o`pkalanishingizga sabab bor. Hammangizda bor. Lekin bu butunlay Germionaning aybi emas. Biz bu jodugar Vaqt chig`irig`ini qanday qo`lga kiritganidan bexabarmiz. Balkim u mening o`g`lim tomonidan berilgandir.

JINNI: Balkim u bizning o`g`limiz tomonidan berilgandir. Yoki undan o`g`irlangandir.

Jinni tribuna yonidagi Garryga borib qo`shiladi.

PROFESSOR MAKANAGAL: Sizning jipsligingiz taqsga loyiq, lekin bu sizning ehtiyotsizligingizni oqlamaydi.

DRAKO: Unda bu ehtiyotsizlikka men ham javob berishim kerak.

Drako tribunaga ko`tariladi va Jinnining yoniga borib turadi. Bu Spartakcha palla edi. Tan berganlarning oh-voxi eshitildi.

Germiona va Garry hech qanday yomon ish qilishmadi, ular hammamizni qutqarishga harakat qilishdi. Agar u aybdor bo`lsa unda men ham aybdorman.

Germiona o`z jamoasiga mamnun qaradi. Ron tribunada turganlarga borib qo`shiladi.

RON: Biron narsa deyish uchun men bu haqida uncha ko`p ma`lumotga ega

emasman, shunday ekan, men o`zinga javob bermayman va men sizlarni ishontirib aytishim mumkinki mening farzandlarimning bunga oz bo`lsa ham daxli yo`q. lekin bu bolalar bu yerda ekan unda men ham ular bilanman.

JINNI: Hech kim ularni qayerdaligini bilmaydi... birgami yoki ayro ekanligini ham. Men ishonamanki bizning o`g`illarimiz qo`lidan kelgancha uni to`xtatish uchun harakat qilishadi, lekin...

GERMIONA: Biz yengilganimiz yo`q. biz gigantlarga odam jo`natdik. Trollarga ham. Kimni topishga muaffaq bo`lgan bo`lsak shunga odam junatdik. Avrorlar uchib sirlarni yashirgan odamlar bilan uchrashishayapti, sir saqlaganlarni esa kuzatishayapti.

GARRY: Lekin bitta rad etib bo`lmas faraz borki: jodugar o`tmishda biz bilgan barcha narsani qayta yozishga kirishib ketgan. Va bizning qo`limizdan kelgan yagona narsa kutish – u muvaffaqiyatga erishishini yoki omadsizlikka yuz tutishini kutish.

PROFESSOR MAKANAGAL: Muvaffaqiyatga erishsa nima bo`ladi?

GARRY: Unda qasam ichib aytishim mumkinki, bu xonadagi ko`pchilik hayot bo`lmaydi. Biz umuman bo`lmaymiz, Volan-de-Mort yana hokimiyat tepasiga keladi.

TO`RTINCHI AKT, IKKINCHI SAXNA

SHOTLAND BALANDLIKLARI, AVEMOR

TEMIR YO`L VOKZALI, 1981-YIL

ALBUS VA Skorpius Vokzal Nazoratchisiga xavfsirab qarab turar edi.

ALBUS: Ikkimizdan birimiz u bilan gaplashishimiz kerak deb o`ylamayapsanmi?

SKORPIUS: Salom janob Vokzal Nazoratchisi. Janob Magl. Savol: siz uchar jodugarni ko`rmadingizmi? Ha aytgancha hozir nechinchi yil? Hozir bo`layotgan voqealardan qo`rqib ketib biz hozirgina Xogvartsdan qochib ketdik, yomon emas -a?

ALBUS: Meni hammasidan ham ko`ra ko`proq tashvishga solayotgan narsa nima ekanligini bilasanmi? Dadam bularni qasddan qilayapmiz deb o`ylayapti.

SKORPIUS: Albus jiddiy gapirayapsanmi? Men jiddiyning jiddiyini nazarda

tutayapman? Biz tuzoqqa tushib qolganmiz, vaqt oralig`ida qolib ketganmiz, balkim butunlaygadir, sen esa havotirlanayapsan, otang bu haqida nima deb o`ylashi mumkinligini o`ylayapsan? Men hech qachon sizlarning juftliklaringizga tushunmayman.

ALBUS: Bizning o`rtamizdagi ko`p narsalarnin tushunib bo`lmaydi. Otamni tushunish chindan ham mushkul.

SKORPIUS: O`zingchi? Qizlar bobida sen tomon emasman, lekin u senga yoqar edi... endi...

Ularning ikkisi ham gap kim haqida ketayotganini tushunadi.

ALBUS: Bunga men sabab bo`ldim, shunday emasmi? Men u Kreyg bilan nima qilganini nazarda tutayapman...

SKORPIUS: Kel bu haqida o`ylamaymiz. Kel bizda bor dalillarni bir joyga to`playmiz, demak bizni ortga qaytishimizda yordam berishi mumkin bo`lgan hech qanday sexrli tayoqcha, supurgi yo`q. Bizning bor narsamiz bu bizning ongimiz va biz Delfini to`xtatishimiz kerak.

VOKZAL NAZORATCHISI (juda ham kuchli shotland aksenti bilan): Siz bilmoq, Ye ken th` auld poezdi kechikadi, bolalar?

SKORPIUS: Kechirasiz?

VOKZAL NAZORATCHISI: Agar siz oan th` auld (Edinburg) poyezdini kutgan, siz uni kechikishini bilgan bo`lish kerak. Liniyada temiryo`l ishi qilingan. Poezd jadvaliga o`zgartirish kiritilgan.

U ularga qaradi, ular esa kutilmagan hodisadan hovliqib qarab turishar edi. Uning qovog`I osilib o`zgartirilgan jadvalga ishora qiladi. U o`zining o`ng tomonini ko`rsatadi.

Kechikkan.

Albus jadvalni qo`liga oladi va uni o`rganishga kirishadi. Uning yuz ifodasi u olayotgan ko`p ma`lumotlar hajmidan o`zgarib ketadi. Skorpion shunchaki VOKZAL NAZORATCHISiga termulib turar edi.

ALBUS: Men uni qayerda ekanligini bilaman.

SKORPIUS: Sen nimani bilib olding?

ALBUS: Sanaga qara. Jadvalda.

Skorpius egiladi va o`qishga kirishadi.

SKORPIUS: O`ttizinchi oktabr, 1981-yil. O`ttiz to`qqiz yol oldingi Barcha Avliyolar Kuni Arafasi kuni. Lekin u nega...? Oxx.

Skorpiusning rangi buni tushunib yetganida o`chib ketadi.

ALBUS: Mening ajdodlarimning o`limi. Otamning yoshligida unga qilingan xamla....aynan Volan-de-Mort qo`llagan afsunning o`ziga qaytgan kuni. U o`zining bashoratini amalga oshirmoqchi emas, u asosiy bashoratni yo`q qilmoqchi.

SKORPIUS: Eng birinchisini?

ALBUS: “Yovuz Lordni yenga oladigan shaxsni tug`ulishiga oz qoldi....”

Skorpius tushunadi.

SKORPIUS va ALBUS: “...u yettinchi oy xotimasida, Yovuz Lordga uch marta qarshi chiqqan kishilardan dunyoga keltiriladi, yettinchi oyning oxirida...”

Skorpiusning yuzi har bir so`zni aytayotganida oqarib ketadi.

SKORPIUS: Bu mening aybim, men unga bashoratni o`zgartirish mumkin deb aytdim... men unga mantiqan bashorat hali shubxali to`liq o`rganilmaganini aytdim...

ALBUS: Yigirma to`rt soatdan ichida Volan-de-Mort chaqaloq Garry Potterni o`ldirishga harakat qilib o`zini la`natga duchor qiladi. Delfi bu la`natni olib tashlamoqchi. U Garryni o`zi o`ldiradi. Biz Godrik Jarligiga borishimiz kerak. Hoziroq.

TO`RTINCHI AKT, UCHINCHI SAXNA

GODRIK JARLIGI, 1981-YIL

Albus va Skorpius Godrik Jarligining markaziy ko`chalarida ketishar edi, ajoyib shovqinli kichkina qishloqcha.

SKORPIUS: Men ko`rinarli hujum alomatlarini payqamayapman...

ALBUS: Bu Godrik Jarligimi?

SKORPIUS: Otang hech olib kelmaganmi?

ALBUS: Yo`q bir necha marta harakat qilgan, lekin men rad etganman.

SKORPIUS: Umuman aytganda bizda ekskursiya uchun vaqt yo`q – biz dunyoni shavqatsiz jodugardan xalos etishimiz kerak, lekin qara: Avliyo Jeremi cherkovi...

Cherkovga ishora qilganida Cherkov paydo bo`la boshlaydi.

ALBUS: Juda ham ajoyib ekan.

SKORPIUS: Avliyo Jeremi qabri g`amgin xotiraga aylanadi, (u qarama – qarshi tomonni ko`rsatib) bu yerda Garry va uning ota-onasining yodgorligi bo`ladi...

ALBUS: Mening otamni haykali bormi?

SKORPIUS: Ox. Hali yo`q. lekin bo`ladi. Umid qilaman. Bu uyda esa Batilda Begshot yashagan, yashaydi...

ALBUS: Batilda Begshot? Sexrgarlik Tarixi Muallifi Batilda Begshotmi?

SKORPIUS: Ha, ha xuddi o`zi. Umuman bu uni uyi ekanligiga ham ishonmayman. Vau! Juda soz! Umuman gap yo`q! Etim jimirlab ketayapti.

ALBUS: Skorpius!

SKORPIUS: Mana u...

ALBUS: Jeymis, Lily va Garry Potterlar uyi...

Yosh chiroyli juftlik uydan bolalar aravachasida bola bilan chiqishdi. Albus ular tomon otildi. Skorpius uni tortib qoldi.

SKORPIUS: Ular seni ko`rishlari mumkin emas, Albus, biz vaqt oralig`idagi voqealarga aralasha olmaymiz va buni qilmaymiz... Bu safar emas.

ALBUS: Bu Delfi hali ... Biz buni uddaladik... u hali...

SKORPIUS: Endi nima qilamiz? U bilan jangga tayyorlanamizmi? U anchagina... yovuz.

ALBUS: Ha. Biz hali buni butunlay o`ylab chimadik, shundaymi? Biz hozir nima qilamiz? Biz qanday qilib otamni ximoya qilamiz?

TO`RTINCHI AKT, TO`RTINCHI SAXNA

SEXRGARLIK VAZIRLIGI, GARRYNING

XONASI

Garry shoshib qog`ozlarni titkilab o`tirardi.

DAMBLDOR: Xayrli kech, Garry.

Qisqa to`xtam. Garry boshini ko`taradi va ma`nosiz qarashi bilan portretga qaraydi.

GARRY: Professor Damblдор mening xonamda. Qanday sharaf. Nima balo bugun e`tibor markazidamanmi deyman?

DAMBLDOR: Nima qilayapsan?

GARRY: Qog`ozlarni tekshirayapman, esimdanda chiqarmasligim kerak bo`lgan narsani esdan chiqarmadimmikan deb qarab chiqayapman. Bizda mavjud bo`lgan chegaralangan uslublarda jang qilishga kuchimni safarbar etayapman. Haqiqiy jang bu yerdan uzoqda bo`layotganini bilsamda. Men yana nima qila olaman?

Jimlik. Damblдор bir so`z ham aytmaydi.

Qayerlarga yo`qolib qolgan ediz Damblдор?

DAMBLDOR: Hozir shu yerdaman.

GARRY: Hozir, jang allaqachon boy berilganda. Yoki siz Volan-de-Mort qaytayotganini inkor etasizmi?

DAMBLDOR: Bo`lishi mumkin.

GARRY: Keting. Hoziroq. Men sizni ko`rishni xoxlamayman, menga keragingiz yo`q. Siz har doim menga chindan ham kerak bo`lgan paytingizda yo`qolib qolasiz. Men uni sizning yordamingizsiz uch marta yengdim. Va agar kerak bo`lsa u bilan yana uchrashaman. O`zim.

DAMBLDOR: Garry chindan ham sen men u bilan sendan foydalanib jang qilgan deb o`ylaysanmi? Agar qo`limdan kelganida men seni bundan xalos qilgan bo`lar edim...

GARRY: "Muhabbat ko`zimizni ko`r qiladi"? Siz hech shu so`z nimani anglatishini tushunasizmi? Bu fikr qanchalik yomon bo`lganligini tasavvur qilayapsizmi? Mening o`g`lim, mening o`g`lim xuddi men siz uchun jang qilganimdek, biz uchun olishayapti. Men xuddi siz menga yomon ota bo`lganingizdek o`z o`g`linga ham men xuddi shunday yomon ota bo`lgan ekanman. U o`zini yoqtirishmagan joyda qoldirib uni yillar davomida alamzada qilib o`stirdim...

DAMBLDOR: Agar sen Odamovilar Xiyobonini nazarda tutayotgan bo'lsang...

GARRY: Yillar... men yillar davomida yolg'izlikda, kim ekanligimni bilmay u yerga qanday borib qolganimni tushunmay, umuman mengacha nimalar bo'lganligini bilmay o'tkazdim!

DAMBLDOR: Men senga bog'lanib qolishni xoxlamagan edim...

GARRY: Siz o'shanda o'zingizni ximoya qilgansiz!

DAMBLDOR: Yo`q. Men seni ximoya qildim. Men senga ozor berishni istamagan edim...

Dambldor rasmdan chiqishga harakat qildi, lekin amalga oshmadi. U yig'lashni boshlaydi lekin uni berkitishga harakat qiladi.

Lekin oxir oqibatda men sen bilan baribir uchrashishimga to'g'ri keldi...sen bor yo'g'i o'n bir yoshda eding, lekin sen juda ham dovyurak eding. Shunday ajoyib. Sen seni yo'naltirilmasa ham o'z oyog'ing bilan o'zing shu yo'lni topib borar eding...

Albatta seni yaxshi ko`rar edim... va bundan hech qachon shubxalanmaganman... yana takrorlanardi... men sevgan hamma odamlarga tuzatib bo'lmas azoblar berardim. Men sevgi uchun yaralmaganman... men hech qachon azob bermasdan sevmaganman.

Qisqa sukut.

GARRY: Menga buni aytib menga kamroq azob bergan bo'lardingiz.

DAMBLDOR (endi ochiqchasiga xo'ngrab): Men ko`r bo'lganman. Buni muhabbat qilib qo'ygan edi. Men tushunmagan edim, sen eshitishing kerak bo'lgani – bu odamovi, mug'ombir, xatarli chol... seni yaxshi ko`rar edi.

Sukut. Ikki erkak ham hissiyotlarga berilib ketadi.

GARRY: Men hech qachon nolimaganman, shunday emasmi.

DAMBLDOR: Garry bu chalkash, hissiyotlarga boy dunyoda hech qachon benuqson yechim bo'lmagan. Sexrgarlikning, odamlar erishishi mumkin bo'lgan komillikningda. Har qanday quvonchli daqiqalarda bir tomchi zaxar bo'ladi: og'riq yana qaytadi deganidir. Sen yaxshi ko'rgan barchaga sen o'z azoblaringni yashirmay ro'yirost gapir. Azoblanish inson uchun nafas olish qanchalik muhim bo'lsa shundaydir.

GARRY: Bularni siz menga bir paytlar aytgan edingiz..

DAMBLDOR: Buning barchasi bugun men senga taklif qila oladiganlarimdir.

U sekin asta ko`zdan g`oyib bo`la boshladi.

GARRY: Ketmang!

DAMBLDOR: Biz yaxshi ko`radiganlar aslida bizni hech qachon tark etishmaydi. Ajal olib qo`ymaydigan narsalar ham bor. Tus...xotira...muhabbat.

GARRY: Men ham sizni yaxshi ko`rar edim Dambldor!

DAMBLDOR: Bilaman.

U Garryni yolg`izlikda qoldirib ketadi. Drako kirib keladi.

DRAKO: Sen Skorpius bo`lgan boshqa dunyoda men Sexrgarlik qonunlarini tatbiq qilish vazirimi bo`lgan ekanligimni bilasanmi? Balkim bu xona yaqin orada meniki bo`lar ekanda. Axvoling qanday?

Garry g`am g`ussasini ichiga yutadi.

GARRY: Kir, ekskursiya qildiraman.

Drako ikkilanib xonaga kiradi. U xonaga ijirg`anib qaradi.

DRAKO: Muammo shundaki, meni hech qachon Vazirlikda ishlash qiziqdirmagan, hattoki bolaligimda ham. Mening otam har doim bunda ishlashni xoxlagan edi, men esa yo`q.

GARRY: Sen nima bilan shug`ullanishni xoxlagan eding?

DRAKO: Kvidish bilan. Lekin yetarlicha yaxshi o`ynolmasdim. Eng xoxlaganim baxtli bo`lish edi.

Garry bosh irg`itadi. Drako Garryga yana bir soniya qarab qo`yadi.

Kechir men bunday suxbatlarga no`noqroqman. Agar bundan ham zarurroq ishlarga o`tsak qarshi bo`lmaysanmi?

GARRY: Albatta. Qanday zarur ish?

Qisqa sukut.

DRAKO: Nima deb o`ylaysan Teador Nott Vaqt chig`irig`ining yagona egasi bo`lganmi?

GARRY: Nima?

DRAKO: Vazirlik musodara qilgan Vaqt chig`irig`i arzon metallardan tayyorlangan timsol edi. Shubxasiz u ishlaydi. Lekin uning jiddiy kamchiligi – o`tmishga faqatgina besh daqiqagagina olib bora olardi, bunday narsalar bilan Qora Joduning narsalarini yig`uvchi haqiqiy kolleksionerga sota olmaysan.

Garry Drako nimani nazarda tutayotganini tushunadi.

GARRY: U senga ishlaganmidi?

DRAKO: Menga emas. Otamga. U boshqa hech kimda bo`lmagan narsalarga egalik qilishni yoqtirardi. Krouker sharafi bilan Vazirlikning Vaqt chig`irig`lari unga har doim sal pal soddalik qilgan. U o`tmishda soatdan ko`ra yillab qolishni xoxlar edi. U bundan hech qachon foydalanmagan bo`lar edi. U ich ichidan Volan-de-Mortsiz hayotni avzal ko`rgan deb o`ylayman. Lekin ha bu Vaqt chig`irig`i u uchun yasalgan edi.

GARRY: Va sen uni saqlab qolgansan?

Drako soatni ko`rsatadi.

DRAKO: Hech qanday besh daqiqalik muammosi yo`q va u xuddi Malfoylar yoqtirganidek yaltirab turadi. Kulayapsan.

GARRY: Germiona Grenjir. Mana nima uchun birinchisini yashirib qo`ygan: ikkinchisi mavjud bo`lib qolishidan qo`rqan. U topshirganida seni Azkabanga jo`natishlari ham mumkin edi.

DRAKO: Bunga boshqa tomondan qarab ko`r: tasavvur qil odamlar menda Vaqtlar aro Sayohat qilish imkonim borligini bilishganini. Keng omma qilayotgan mish mishlarga yetarlicha dalil bo`lgan bo`lar edi.

Garry Drakoga qaraydi, uni juda yaxshi tushunib turardi.

GARRY: Skorpion.

DRAKO: Biz farzand ko`ra olar edik, lekin Astoriya juda ham nimjon edi. Juda ham kuchli qondan o`tadigan la`nat. Uning ajdodlari la`natlangan edi... u unga o`mashib oldi. Bilasan bunday narsalar bir necha avlodda bo`lsa ham yuzaga chiqadi...

GARRY: Afsusdaman Drako.

DRAKO: Men uning sog`lig`ini xavf ostiga qo`ymasdim, men unga Malfoylar

nasli qurib ketishi ham, otamning fikrlashi ham muhim emas dedim. Lekin Astoriya Malfoylar nomi uchun ham, toza qon yoki iftixori uchun ham emas, o'zimiz uchun farzandimiz bo'lishini xoxlar edi. Va keyin o'g'limiz, Skorpius tug'uladi... bu biz ikkimiz uchun ham u garchi Astoriyani anchagina kuchsizlantirgan bo'lsa ham eng baxtli kun edi. Biz uchchalamiz yashirinib oldik. Men uning kuchini saqlab qolmoqchi edim... Shunday qilib mish mishlar tarqaldi.

GARRY: Sizlarga qanchalik qiyin bo'lganligini tasavvur qila olmayman.

DRAKO: Astoriya hech qachon qarilik bilan yuzlashmasligini bilar edi. U o'zini ketganidan keyin yonimda kimdir qolishini xoxlar edi, axir... Drako Malfoy bo'lish juda ham yolg'izlik degani. Men har doim shubxa ostida bo'laman. O'tmishdan qochib qutulib bo'lmaydi. Men hech qachon uni bu g'iybatchi, tanqdichi dunyodan yashirish, bir kun kelib men o'g'limni o'zim qachonlardir chidagan g'oyat yomon shubxa-yu, gumonlarga burkab qo'yishini o'ylab ko'rmagan ekanman.

GARRY: Muhabbat ko'r qiladi. Biz ikkimiz ham o'g'illarimizga ular xoxlaganlarini emas, o'zimiz xoxlagan narsalarni berishga harakat qilibmiz. Biz shunchalik o'zimizning o'tmishimizdagi xatolarni to'g'rilashga harakat qilibmizu, ularga hozirgi kunni qo'rong'ulashtirib yuboribmiz.

DRAKO: Man nima uchun senga bu narsa kerak. Men o'zimni zo'rg'a bundan foydalanishdan tiyib turdim, vaholanki men Astoriya bilan o'tadigan bir soniyam uchun butun borlig'imni bergan bo'lardim.

GARRY: O, Drako.... Qila olmaymiz. Biz undan foydalana olmaymiz.

Drako Garryga bugungi daxshatli yo'qotishli kunlar ichida birinchi marta bir birlariga do'stlarcha qarashdi.

DRAKO: Biz ularni, o'g'illarimizni hattoki asrlar ketsa ham qidirib topishimiz kerak...

GARRY: Bizda ular qaysi makon yoki qaysi zamonda ekanliklari haqida oz bo'lsa ham tasavvur yo'q. Zamonlar aro ularni umuman qaysi zamonda qidirish haqida tasavvur bo'lmasa, bu foydasiz mashg'ulotga aylanadi. Yo'q. qo'rqamanki muhabbat bu yerda xuddi Vaqt chig'irig'i kabi yordam bera olmaydi. Qo'ramanki, endi bizni qutqarish faqatgina o'g'illarimizning qo'lida qolayapti.

TO'RTINCHI AKT, BESHINCHI SAXNA

GODRIK JARLIGI, JEYMIS VA LILY POTTERLAR UYI YAQINIDA, 1981-YIL

ALBUS: Shunday qilib bobom va buvimga aytamizmi?

SKORPIUS: Ular hech qachon farzandlarini qanday katta bo'layotganini ko'rishmasliklarinimi?

ALBUS: U yetarli darajada kuchli, bilaman, uni ko'rding.

SKORPIUS: Albus u juda ham ajoyib ko'rinardi. O'ringda bo'lganimda u bilan gaplashishga sabrim chidamagan bo'lar edi. Lekin u Volan-de-Mortga Garryni tirik qoldirishini o'tinib so'rashi, uni o'lishi mumkinligini tushunishi kerak, sen esa dunyodagi eng yomon tushuntiruvchi va yana aldoqchisan...

ALBUS: Dambldor. Dambldor tirik. Biz Dambldordan yordam so'raymiz. Sen Sneyp bilan qilgan ishingni undan ham, so'raymiz...

SKORPIUS: Yana tavakkal qilib biz unga otang tirik qolishi haqida ham aytarmiz? Uni farzandlari bo'lishi haqida ham?

ALBUS: U Dambldorku! U bularning barchasini tuzata oladi!

SKORPIUS: Albus ko'pgina kitoblar Dambldor nimani bilgani, qayerdan bilgani va u qilgan ishlarini nima uchun sodir etgani haqida hikoya qiladi. Lekin shubxa yo'qki u nima qildi, u nima qilishi kerakligiga men aralashmayman va tavakkal ham qilmayman. Men undan aniq qarama qarshi haqiqatni ko'rganim uchungina yordam so'rganman. Endi esa vaziyat boshqacha. Biz o'tmishdamiz. Biz vaqtning siljishi yana ham ko'p muammo paydo bo'lishi uchun to'g'irlay olmaymiz. Agar bizning sargo'zashtlarimiz bizni nimagadir o'rgatgan bo'lsa, bu aynan shu narsadir. Kim bilandir gaplashish ya'ni vaqtning yanglishishining oqibati juda ham katta bo'ladi.

ALBUS: Unda biz kelajak bilan bog'lanishimizga to'g'ri keladi. Biz otamga xabar yo'llashimiz kerak.

SKORPIUS: Lekin bizda boyqush ham yo'q. Unda esa Vaqt chig'irig'I yo'q.

ALBUS: Agar biz xabar jo'nata olganimizda otam bu yerga kelish yo'lini topgan bo'lar edi. Vaqt chig'irig'ini o'zi yaratishiga to'g'ri kelsa ham.

SKORPIUS: Biz unga xuddi Xotiralar Girdobiga xabar jo'natgandek xabar jo'natamiz, uning qarshisida turamiz va kerakli vaqtda eslay olishiga umid bog'lab

xabar jo`natishimiz kerak. Albatta bu dargumon, lekin... Bola qarshidiga tiz cho`kamiz va shunchaki bir necha marotaba "YORDAM BERING, YORDAM BERING, YORDAM BERING" deb baqiramiz. O`ylashimcha bolaga yengilgina shikast yetadi.

ALBUS: Faqat yengilgina.

SKORPIUS: Hech qanday shikast hozir sodir bo`layotganlar bilan taqqoslab bo`lmaydi... Va balkim keyinroq u eslaganda, kechroq, bizning yuzimizni va biz qanday baqirganimizni eslab qoladi...

ALBUS: Yordam ber.

Skorpius Albusga qaraydi.

SKORPIUS: Sen xaqsan. Bu axmoqona fikr edi.

ALBUS: Bu sening hayotingdagi eng yomon g`oyalaringdan biri edi.

SKORPIUS: Men o`ylab topdim! Biz uni o`zimiz tortib olamiz... qirq yil kutamiz va o`zimiz eltib qo`yamiz...

ALBUS: Imkonsiz... Delfi vaqtning siljishini o`zi xoxlaganiday o`zgartirishi bilan u jangchilarini bizni topish va o`ldirish uchun jo`natadi.

SKORPIUS: Unda biron bir xilvat joyga yashirinsakchi?

ALBUS: Sen bilan biron xilvat joyda qirq yil yashirinish qanchalik yoqimli bo`lmasin, ular bizni topishadi. Va biz o`lamiz, vaqt esa o`sha noto`g`ri yo`nalishi bo`yicha qolib ketadi. Yo`q. Bizga biz nazorat qilishimiz mumkin bo`lgan ishonchliroq, u kerakli bo`lgan vaqtda oladigan nimadir kerak. Bizga...

SKORPIUS: Bizda hech narsa yo`q. Har qanday vaziyat bo`lmasin agarda menda yana butun umr zulmatda qolib ketish uchun sherik tanlash kerak bo`lganda ham men seni tanlagan bo`lar edim.

ALBUS: Hafa bo`lmakuya, men haqiqatdan ham sexrni yaxshiroq boshqaradigan va puxtaroq odamni tanlagan bo`lar edim.

Lily bolalar aravachasidagi kichkina Garry bilan uydan chiqadi, u mexr bilan uni yopinchi`giga o`raydi.

Uning yopinchi`gi. U uni o`zini yopinchi`gi bilan o`rayapti.

SKORPIUS: Umuman olganda bugun chindan ham salqin.

ALBUS: U har doim bu uning onasidan qolgan yagona narsa ekanligini aytgan edi. Qara, qanday mehr bilan u uni o`rayapti, o`ylashimcha buni bilishni xoxlagan bo`lar edim. Men buni unga aytishni qanchalik xoxlardim!

SKORPIUS: Agarda men otamga nimadir aytmoqchi bo`lganimda, bilmadim aynan nimani. O`ylashimcha, men unga bazida men u o`ylaganidan ham kattaroq jur`atga egaligimni aytgan bo`lar edim.

Albus tug`ulgan fikridan gulgun ochilib ketadi.

ALBUS: Skorpius mening otam hali ham uni saqlab keladi.

SKORPIUS: Bu ish bermaydi. Agar biz unga juda ham kichik yozuvda bo`lsa ham yozsak u juda erta o`qib qoladi. Vaqt siljishi buziladi.

ALBUS: Sevgi damlamasi haqida nimani bilasan? Uning tarkibi aniq qanday masalliqlardan tashkil topadi?

SKORPIUS: Menimcha marjon changidan.

ALBUS: Marjon changi... juda ham kamyob masalliq, shundaymi?

SKORPIUS: Asosiy sabab u juda ham qimmatligida. Gapni qayerga olib borayapsan, Albus?

ALBUS: Biz otam bilan meni maktabga ketishimdan oldin urushib qolgan edik.

SKORPIUS: Bu haqida bilaman. Bu qandaydir ma`noda bizning bu ishkalg tushib qolishimizning ham sababchidir.

ALBUS: Men uni xonada irg`itib yuborgandim. U esa Ron tog`am xazil qilish maqsadida bergan maftun qilish damlamasiga tushdi.

SKORPIUS: U xazilkashku.

ALBUS: Damlama yopinchiqqa butunlay yoyilib ketgan edi va men aniq bilamanki, oyim otamga men ketganimdan keyin xonamga kirishiga ruxsat bermagan.

SKORPIUS: Xo`sh?

ALBUS: Hozir ularda ham xuddi bu yerdagidek Muqaddas Avliyolar (Halloween) kuni arafasi, otam menga uni har doim Muqaddas Avliyolar kunida qo`liga olishini aytgan edi. Bu uning onasidan qolgan yagona narsa, shunday ekan u uni qidiradi va topganida esa...

SKORPIUS: Yo`q. baribir nima haqida gapirayotganingni tushunmayapman.

ALBUS: Nima marjon changi bilan reaksiyaga kirishadi?

SKORPIUS: Agar jun gazlamasidagi Niqoblovchi nastoyka va marjon changi tutashsa... yonadi.

ALBUS: Jun gazlamasidagi Niqoblovchi nastoykani (u ishonchsizlik bilan bu so`zni talaffuz qiladi) ochiq oydin ko`rinishi mumkinmi?

SKORPIUS: Yo`q.

ALBUS: Ya`ni biz bu yopinchig`ni o`g`irlab unga xabar qoldirsak jun gazlamasidagi Niqoblovchi nastoyka, unda...

SKORPIUS (evrika!): U rom qiladigan damlama bilan qo`shilmaguncha hech narsa ko`rinmaydi. Xonangdagida. Haqiqatdada. Dambldor aytganidek, menga yoqayapti.

ALBUS: Biz hech bo`lmasa ozgina Niqoblovchi nastoykani qayerdan topishimiz mumkinligini qayerdan topishni o`ylasak...

SKORPIUS: Bilasanmi, Batilda Begshot hech qachon afsungarlar va sexrgarlar nima uchun o`z eshiklarini qulflab yurishlarida ma`no topa olmagan ekanligi haqida mish mishlar yuradi.

Eshik lang ochildi.

Mish mishlar haqiqatga o`xshaydi. Bironta sexrli tayoqcha topish va damlama qaynatish bilan shug`ullanishning ayni vaqti.

TO`RTINCHI AKT, OLTINCHI SAXNA

GARRY VA JINNI POTTERLAR UYI, ALBUSNING XONASI

Garry Albusning yotog`ida o`tirar edi. Jinni kiradi va unga qaraydi.

JINNI: Seni bu yerdan topaman deb o`ylamagan edim.

GARRY: xavotir olma, men hech narsaga teginmadim. Sening ziyoratgoxing butunligicha saqlangan holatda turibdi. (u aytganlaridan seskanib ketadi) Kechir. Men bunday demoqchi emasdim.

Jinni bir og`iz ham gapirmaydi. Garry unga qaraydi.

Bilasan mening ko`plab Xellounlarim juda ham daxshatli bo`lgan, lekin shubxasiz bularning barchasi hozirda ikkinchi darajaga tushadi.

JINNI: Men seni aybdor qilmasligim kerak edi. Men har doim seni oshirib yuborasan der edim, lekin bu men edim.... Albus yo`qolib qoldi va men hammasiga sen aybdorsan deb hisoblabman. Men unday o`ylamasligim kerak edi.

GARRY: Buni mening aybim deb hisoblamaysanmi?

JINNI: Garry uni qudratli yovuz jodugar o`g`irlab ketdi. Bunda nima aybing bo`lishi mumkin?

GARRY: Men uni xaydadim. Men uni to`g`ri unga yo`naltirdim.

JINNI: Kel bu jangni xuddi allaqachonlar boy berganlarday gaplashmaymiz, xopmi?

Jinni boshini irg`itadi. Garry yig`lashni boshlaydi.

GARRY: Men afsusdaman Jin...

JINNI: Meni eshitmayapsanmi? Men ham afsuslanayapman.

GARRY: Men tirik qolmasligim kerak edi. Men o`lishim kerak edi, hattoki Dambldor ham xuddi shunday o`ylagan edi... afsuski men hayotman. Men Volan-de-Mortni yengdim. Bu odamlarning barchasi... bu odamlarning barchasi: mening ota – onam, Fred, Ellik nafar Halok bo`lganlar... va hayotga faqat men qaytdimmi? Bu qanday bo`lishi mumkin? Sodir bo`lgan barcha narsalar butunlay mening aybim.

JINNI: Ularni Volan-de-Mort o`ldirgan.

GARRY: Agar men uni ertaroq o`ldirganimdachi? Mening qo`lim ularning qoni bilan bulg`angan. Ana endi bizning o`g`limizning ham...

JINNI: U o`lmagan. Meni eshitayapsanmi Garry? U o`lmagan.

U Garryni quchib oladi. Uzoq va mungli sukut cho`kadi.

GARRY: Omon qolgan Bola. Omon qolgan Bola uchun qancha odam qurbon bo`lishi kerak?

Bir lahzaga Garry bo`shashib ketadi. Keyin u yopinchiqni payqab qoladi va u tomon boradi.

Bu yopinchiq menga qolgan yagona narsa... o`sha Xellovindan. Bu ular haqidagi yagona xotira. Va shu vaqt ichida...

U yopinchiqni oladi va unda teshikchni payqab bezovtalanadi.

Teshilibdi. Ronning axmoqona maftun qiluvchi damlamasi uni ich ichigacha kuydirib yuboribdi. Unga qara. U yo`q qilinibdi. Yo`q qilinibdi.

U yopinchiqni teskari o`giradi va unda yonib paydo bo`layotgan so`zlarga qarab hayratlanadi.

Nima?

JINNI: Garry... unga nimadir... yozilgan...

Saxnaning boshqa tarafida Albus va Skorpius paydo bo`lishadi.

ALBUS: "Ota..."

SKORPIUS: Biz "Ota" bilan boshlaymizmi?

ALBUS: Shundagina bu mendan ekanligini tushunadi.

SKORPIUS: Uning ismi Garry. Biz "Garry" deb boshlashimiz kerak.

ALBUS (qat`iy): Biz "Ota" bilan boshlaymiz.

GARRY: "Ota". Unga "Ota" deb yozilganmi? Unchalik tushunarli yozilmagan.

SKORPIUS: "Ota, YORDAM BERING"

JINNI: "Yorug`"? Bu yerga "yorug`" deb yozilganmi? Keyin..."Go`llik".

GARRY: "Ota yorug` go`llik jarchi"? Yo`q. Bu... qandaydir g`alati hazil.

ALBUS: "Ota. Yordam bering. Godrik Jarligi".

JINNI: Menga ber. Men sendan ko`ra yaxshiroq ko`raman. Ha. "Ota yorug` go`llik" - bu "jarchi" emas, bu "Jarroh" yoki "Jarlik"mi? Keyin raqamlar... Bu yerda aniq raqamlar...3...1...1...0...8...1. Bu qandaydir maglning telefon nomerimi? Yoki qandaydir kordinata yoki....

Garry qaraydi, bir qancha fikrlar uning miyasida aralashib ketadi.

GARRY: Yo`q. bu sana. 31 – oktabr 1981 – yil. Mening ota onam vafot etgan kun.

Jinni Garryga qaraydi, keyin nigohini yopinchig`ga qaratadi.

JINNI: Bu yerga "yorug`" deb yozilmagan. "Yordam bering" deyilgan.

GARRY: “Ota. Yordam bering. Godrik Jarligida. 31/10/81.” Bu xabar. Aqli bola menga xat qoldiribdi.

Garry Jinnini qattiq o`pib oladi.

JINNI: Buni Albus yozganmi?

GARRY: U menga ular qayerda va qaysi vaqtda ekanligini yozibdi, ana endi biz Delfi qayerda ekanligini va qayerda u bilan to`nash kelishimizni bilamiz.

U yana rafiqasini qattiq o`pib oladi.

JINNI: Biz ularni hali ortga qaytarmadikku.

GARRY: Germionaga boyqush jo`nataman. Sen esa Drakoga. Mayli bizni Godrik Jarligida Vaqt g`alviri bilan kutib turishsin.

JINNI: Hammasi to`g`ri “Bizni”. Mensiz u yerga borishni hayolingga ham keltirma Garry.

GARRY: O`z o`zidan ma`lumki, sen men bilan birga borasan. Jinni, agar Damblodor so`zlariga ishonadigan bo`lsak endi bizda imkon bor, mana bizga kerak bo`lgan barchasi.

TO`RTINCHI AKT, YETTINCHI SAXNA

GODRIK JARLIGIDA

Ron, Germiona, Drako, Garry va Jinni hozirgi kundagi Godrik Jarligi ko`chalarida ketishar edi. Bu sershovqin shaxar yillar davomida kengayib ketibdi.

GERMIONA: Godrik Jarligi. Yigirma yil bo`lgan bo`lishi kerak....

JINNI: Menga shunday tuyulayapti yoki chindan ham atrofda magllar ko`payib ketgan...

GERMIONA: Endi bu yerga dam olish kunlarini o`tkazish uchun ko`pchilik kelayapti.

DRAKO: Men esa nima uchun ekanligini ham ko`rdim: ana u somondan qilingan tomlarga qarang. Bu nima, fermerlar rastasimi?

Germiona Garryga qaraydi – u esa ko`rayotganlariga qarab hayratda atrofga qarab kelardi.

GERMIONA: Biz bu yerda oxirgi marta qachon bo`lganimizni eslay olasanmi? Hammasi eski paytlardagiday.

RON: Hammasi eski paytlardagiday, faqat sizlar bilan yana bir juft dum ham bor, shundaymi?

Drako darrov bu pichingni tushunadi.

DRAKO: Men aytishim mumkinki...

RON: Malfoy endi sen ham butunlay Garryning o`rtoqchasisan va seni farzanding yetarlicha yoqimtoy bola, lekin sen mening rafiqam haqida bir qancha noto`g`ri narsalar aytding...

GERMIONA: Va seni rafiqanga uni muammolarini uning o`rniga yechishga kirishib ketishingni keragi yo`q.

Germiona Ronga g`azabli nigoh bilan qaraydi. Bu uni to`xtatib qoladi.

RON: Mayli. Lekin sen u haqida yoki men haqimda nimadir desang....

DRAKO: Nima qilasan Uizli?

GERMIONA: Seni quchib oladi. Chunki endi siz bitta jamoadasiz, shundaymi Ron?

RON (Uning qat`iy nigohi ostida yengiladi): Mayli. Men, xm, o`ylaymanki sening soching juda ham chiroyli, Drako.

GERMIONA: Rahmat, azizim. Endi ancha yaxshi bo`ldi. Endi kelinglar ishga kirishaylik.

Haddan tashqari g`azablanishni boshlagan Drako Vaqt chig`irig`ini chiqaradi, qolganlar uning atrofida turginlaricha.

Katta chaqnash va quloqni qomatga keltiradigan darajada shovqin sodir bo`ladi. Vaqt to`xtab qoladi. Keyin u ochiladi, soniyaga qotib qoladi va ortga qarab aylanishni boshlaydi. Birinchi sekin....

Lekin keyin tezlashadi...

Ular atrofga boqishadi.

RON: Xo`sh? Ish berdimi?

TO`RTINCHI AKT, SAKKIZINCHI SAXNA

GODRIK JARLIGIDA, OMBORXONA, 1981-YIL

Albus nigohini ko`taradi va hayron qolib Jinni, Garry va jamoaning boshqa omadli a`zolarini ko`radi. (Drako, Ron va Germionani)

ALBUS: Oyi?

GARRY: Albus Severus Potter. Biz seni ko`rganimizdan xursandmiz.

Albus yugurib boradi va o`zini Jinnining quchog`iga otadi. Baxtli Jinni uni quchoqlab oladi.

ALBUS: Bizning xabarimizni oldingizmi?...

Skorpius Drakoga qarab yuguradi.

DRAKO: Biz ham quchoqlashishimiz mumkin agar xoxlasang...

Skorpius otasiga ishonmay qaraydi. Bir laxzadan keyin ulardan qovushmagan yarim quchoq hosil bo`ldi. Drako tabassum qilardi.

RON: Endi bu Delfi deganlari qayerda?

SKORPIUS: Siz Delfi haqida bilasizlarmi?

ALBUS: U shu yerda. Biz u sizni o`ldirmoqchi deb o`ylayapmiz. Volan-de-Mort sizga afsun o`qishidan oldin uning o`zi sizni o`ldirmoqchi, bashoratni to`xtatish uchun va...

GERMIONA: Ha biz ham shu haqida o`ylagan edik. Siz uni aniq qayerda yurganini bilasizmi?

SKORPIUS: U ko`zdan g`oyib bo`ldi. Siz qanday qilib... qanday qilib, Vaqt chig`irig`isiz...

GARRY (gapini bo`lib): Uning tarixi juda ham uzun va chalkash, Skorpius. Bunga vaqtimiz yo`q.

Drako minnatdorlik bilan kulib qo`yadi.

GERMIONA: Garry haq. Vaqt bu muhim omil. Joylarimizni egallashimiz kerak. Hozir Godrik Jarligi unchalik katta emas, lekin u har qanday joyda paydo bo`lishi mumkin. Shuning uchun bizga shaxar juda ham yaxshi, ko`plab nuqtalar ko`rinadigan joy topishimiz kerak, balkim u joy bizni yashirinishimiz uchun ham

bo`lar, chunki bizni bu yerda hech kim ko`rmasligi kerak.

Hamma xo`rmayib, o`ylashga kirishishdi.

Menimcha Avliyo Jeremi cherkovi to`g`ri keladi, shunday emasmi?

TO`RTINCHI AKT, TO`QQIZINCHI SAXNA

GODRIK JARLIGIDA, AVLIYO JEREMI CHERKOVI, BOSHPANADA, 1981-YIL

Albus cherkov skameykasida uxlab yotardi. Jinni diqqat bilan unga qarab o`tirardi. Garry unga qarama qarshi oynaga qarab o`tiribdi.

GARRY: Yo`q. Hech narsa yo`q. Nimaga u bu yerda emas?

JINNI: Biz birgamiz, otang ham onang ham tirik, biz vaqtni ortga qaytara olamiz, Garry, lekin biz uni tezroq yurishga majbur qila olmaymiz.

U uxlayotgan Albusga qaraydi.

Yoki qaysilarimizdan birimiz tayyor bo`ladi.

GARRY: Bechora bola dunyoni qutqarishim kerak deb o`ylabdi.

JINNI: Bechora bola dunyoni qutqardi. Yopinchiq bilan bog`liq bo`lgan fikr ajoyib edi. Aytmoqchimanki, u deyarli dunyoni yo`q qilib yuborishiga sal qoldi, lekin bu narsalar haqida o`ylamaslik yaxshiroq bo`ladi.

GARRY: Nima deb o`ylaysan, uning axvoli yaxshimikan?

JINNI: U hammasini eplaydi, shunchaki unga ozgina vaqt kerak, xuddi sendagidek.

Garry tabassum qiladi. U Jinna bilan Albusga qarashadi.

Bilasanmi men, Volan-de-Mort anavi daxshatli kundalik bilan meni boshqarib yurgan paytda, Maxfiy Xonani ochganimda men ham deyarli hamma narsani yo`q qilib yubordim...

GARRY: Eslayman.

JINNI: Meni shifoxonadan javob berishganida menga hech kim e`tibor qaratmagan, hamma o`zini chetga olgan edi. Hamma, faqat bir bola kimki unda hamma narsa mavjud bo`lgan boladan tashqari. U Griffindorning umumiy

mehmonxonasiga joylashib olgan edi va menga suvda olovsiz portlovchi Salyut o'ynashni taklif qildi. Odamlar sen haqingda ular bilishi kerak bo'lgan hamma narsani bilishadi deb o'ylashadi., lekin seni bir parchangda har doim umuman har qanday vaziyatda ham chiqib keluvchi qahramon yashaydi. Menimcha shuncha narsa bo'lib o'tganidan keyin esda saqlash kerakki: ba'zida odamlarga ayniqsa bolalarda shunchaki kim bilandir suvda olovsiz portlovchi Salyut o'ynash uchun kimdir kerak bo'ladi.

GARRY: Sen biz aynan shuni e'tiborsiz qoldirdikmi.... Suvda olovsiz portlovchi Salyutni?

JINNI: Yo`q. Lekin men Albus xuddi men senga nisbatan o'sha kuni his qilgan muhabbatni his qilayapti deb ishonmayman.

GARRY: Men u uchun qo`limdan kelgan barcha ishni qilaman.

JINNI: Garry sen har qanday inson uchun ham qo`lingdan kelgan barcha ishni qilgan bo'larding. Sen deyarli butun dunyo uchun o`zingni qurbon qilishni xush ko`rasan. U shunchaki unga qaratilgan o`zgacha muhabbatni his qilishi kerak. Muhabbat uni kuchli qiladi, u seni ham.

GARRY: Bilasanmi, Albus yo`qolib qolmagunicha men aynan mening oyim men uchun nimalarga tayyor bo'lganini tushunmagandim. Ximoya tilsimi shunchalik kuchli ediki, o`ldiruvchi qarg`ishni ham qaytara olgan edi.

JINNI: Va Volan-de-Mort tushunmagan yagona tilsim – bu muhabbat.

GARRY: Mening Albusga muhabatim o`zgacha, Jinni.

JINNI: Bilaman. Lekin u ushbu muhabbatni his qilishi kerak.

GARRY: Meni yonimda sen borliging meni omadim, shunday emasmi?

JINNI: Albatta. Va men buni yana boshqa payt muhokama qilishdan xursand bo'laman. Lekin kel hozir biz Delfini qanday to`xtatish haqida bosh qotiramiz.

GARRY: Vaqtimiz oz.

Jinnining miyasiga bir fikr keladi.

JINNI: Agar faqat bu... Garry, kimdir uni nima uchun aynan bu kunni tanlagani haqida o`ylab ko`rmadimi? Bugunni?

GARRY: Chunki bu kun hamma narsa o`zgargan kun...

JINNI: Ayni vaqtda sen bir yoshlar chamasisan to`g`rimi?

GARRY: Bir yoshu uch oylikman.

JINNI: U seni yoshga to`lmasingdan yoki uch oyligingada o`ldirishi mumkin. U deyarli butun kun Godrik Jarligida yuribdi. U nimani kutayapti?

GARRY: Men hali ham nimani nazarda tutayotganingni tushunmayapman...

JINNI: Nima bo`ladi agar u seni kutmayotgan bo`lsa... u uni kutayotgan bo`lsa... to`xtatish uchun.

GARRY: Nima?

JINNI: Delfi bugun u shu yerda bo`lgani uchun paydo bo`lgandir, otasi shu yerga keladiku. Delfi u bilan uchrashmoqchi. U bilan o`zi yaxshi ko`rgan otasi bilan birga bo`lish uchun. Volan-de-Mort seni o`ldirishga harakat qilganida o`zi yengilgan edi. Agar u buni qilmaganida...

GARRY: U bundan ham kuchli bo`lgan bo`lar... zulmat ham yana ham qorong`ulashgan bo`lar edi.

JINNI: Garry Potterni o`ldirish bashoratni to`xtatishning eng yaxshi yo`li emas, Volan-de-Mortni harakat qilmaslikka majburlash.

TO`RTINCHI AKT, O`NINCHI SAXNA

GODRIK JARLIGIDA, AVLIYO JEREMI CHERKOVI, 1981-YIL

Hamma birgalikda to`planishgan va sarosimaga tushganday ko`rinar edi.

RON: Oydinlashtirib olaylik biz Volan-de-Mortni ximoya qilamiz shundaymi?

ALBUS: Mening bobom va buvimni o`ldirgan Volan-de-Mortni, mening otamni o`ldirishga harakat qilgan Volan-de-Mortnimi?

GERMIONA: Sen haqsan Jinni. Delfi Garryni o`ldirishga harakat qilmaydi. U Garryni o`ldirishga harakat qiladigan Volan-de-Mortni to`xtatmoqchi. Ajoyib.

DRAKO: Shunday qilib.... Biz faqat Volan-de-Mortni kelishini kutishimiz kerakmi?

ALBUS: Delfi uni qachon kelishini bilarmikan? U yigirma to`rt soat oldin uni qayerda va qachon paydo bo`lishiga ishonchi komil bo`lmagani uchun kelmaganmi? Tarix kitoblarida, agar men xato gapirsam to`g`irlab yuborasan

Skorpius, uni Godrik Jarligining qayerida va qachon paydo bo`lishi haqida ma`lumot yo`q edimi?

SKORPIUS VA GERMIONA: Sen adashmayabsan.

RON: Jin ursin! Endi ular ikkita!

DRAKO: Va bu bizga qanday yordam berishi mumkin?

ALBUS: Bilasizmi men chindan ham nimada yaxshiman?

GARRY: Sen ko`p narsada yaxshisan Albus.

ALBUS: Sexrli Damlamalar qaynatishda. O`ylashimcha Batilda Begshotning omborxonasida Qiyofaga kirish damlamasi uchun hamma masalliqalar topiladi. Biz Volan-de-Mort qiyofasiga kiramiz va u bilan uchrashuvga chiqamiz.

RON: Qiyofaga kirish damlamasi uchun senga yana nimadir kerak. Bizda esa Volan-de-Mortning biron bo`lagi yo`q.

GERMIONA: Lekin menga bu fikr yoqdi, u bilan “mushuk sichqon” o`ynaymiz.

GARRY: Qiyofaga kirish afsunidan foydalansak qanchalik o`xshashi mumkin?

GERMIONA: Biz uni qanday ko`rinishini bilamiz. Va ichimizda zo`r afsungarlar va sexrgarlar mavjud.

JINNI: Sizlar Volan-de-Mort qiyofasiga kirmoqchimisizlar?

ALBUS: Bu yagona chora.

GERMIONA: Xuddi shunday.

Ron qo`rqmasdan oldinga chiqadi.

RON: Unda men xoxlardimki... o`ylaymanki men uni qiyofasiga kirishim kerak. Men Volan-de-Mort bo`lish yaxshi demoqchi emasman, lekin men o`zimni topshirsam... hammalaringizni ichingizda men eng vazminiman, shunday ekan... meni Volan-de-Mortga aylanishim menga kamroq zarar yetkizadi, oralaringdagi ba`zi hovliqmalarga nisbatan...

Garry ortga tisarilib, o`z o`zini kuzatadi

GERMIONA: Sen kimni hovliqma deyapsan?

DRAKO: Men ham ta`labgor bo`lishni xoxlardim. O`ylaymanki Volan-de-Mort bo`lish aniqlikni talab qiladi xafa bo`lmakuya Ron, bundan tashqari qora jodudagi

bilimlarni ham...

GERMIONA: Men ham ko`ngilli bo`lishni xoxlardim. O`ylashimcha bu meni Sexrgarlik Vaziri sifatidagi burchim va vazifam.

SKORPIUS: Balkim biz qur`a tashlashimiz kerakdir...

DRAKO: Sen bunda ishtirok etmaysan Skorpius.

ALBUS: Umuman olganda...

JINNI: Yo`q. Hech qachon. Men hammangiz aqlingizni yeb qo`ygansiz deb o`ylayapman. Men buni miyangda uni ovozi eshitish qanday ekanligini bilaman, - men uni yana paydo bo`lishini istamayman...

GARRY: Xoxlaysizmi yoki yo`q bu men bo`lishim kerak.

Hamma Garryga qaraydi.

DRAKO: Nima?

GARRY: Reja ish berishi uchun u meni u ekanligimga so`zsiz ishonishi kerak. U Esperanto tilidan foydalanadi va men uni tushuna olishim mumkinligi yana bir sabab bo`ladi. Bundan tashqari men bu qanday bo`lishini bilaman: o`zimni unga o`xshab qanday tutishni. Men u bo`lish qanday bo`lishini bilaman. Bu men bo`lishim kerak.

RON: Bo`lmagan gap. Chiroyli qilib aytganda bu butunlay bo`lmagan gap. Sen har qanday vaziyatda ham bo`lmaysan...

GERMIONA: Sen xaqsan deb qo`rqaman mening qadrli do`stim.

RON: Germiona adashayapsan. Volan-de-Mort bu unday emas... Garry bormaydi...

JINNI: Men akamga qo`shilishni yomon ko`raman, lekin...

RON: U butunlay Volan-de-Mort qiyofasida qolib ketishi mumkinku.

GERMIONA: Xuddi har qaysimiz qolib ketishimiz mumkin bo`lganidek. Sening xavfsirashing asossiz, lekin...

GARRY: Bo`ldi Germiona. Jinni.

Jinni va Garry bir biriga qarashadi.

Agar sen bunga qarshi bo`lsang men buni qilmayman. Lekin yagona yo`lga o`xshab ko`rinayapti. Haqmanmi?

Bir soniyaga Jinni o`ylanib qoladi, keyin sekin bosh iring`itadi. Garryning yuzi keskinlashadi.

JINNI: Sen xaqsan.

GARRY: Kelinglar buni qilaylik unda.

DRAKO: Biz seni qaysi yo`ldan yurishingni muhokama qilishimiz kerak...

GARRY: Delfi uni qidirayapti va meni oldimga o`zi keladi.

DRAKO: Keyin nima bo`ladi? Yoningga kelganidan so`ng? men senga uni juda yovuz maxoratli afsungar ekanligini eslatib qo`yishim kerak.

RON: Tinchlan. U uni bu yerga olib keladi ba biz birgalikda uni qo`lga tushuramiz.

DRAKO: Qo`lga tushuramiz?

Germiona atrofga ko`zdan kechiradi.

GERMIONA: Biz bu eshiklar ortiga yashirinamiz. Agar sen uni bu yerga olib kela olsang Garry (u atirgul bezakli derazadan tushayotgan poldagi nurga ishora qilib) biz paydo bo`lamiz va uni qochib ketish imkonini yo`q qilamiz.

RON (Drakoga qarab): Keyin biz uni qo`lga tushiramiz.

GERMIONA: Garry so`nggi bor: sen buni eplashingga ishonching komilmi?

GARRY: Ha eplayman.

DRAKO: Yo`q bu yerda “agarlar” juda ham ko`p. Juda ham ko`p... qiyofaga kirish ish bermasligi mumkin, u orqasidan tilsimni ko`rib qolishi mumkin... agar u bizdan hozir qochib ketsa, u qanaqa zararlar olib kelishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin. Bizga rejani qayta o`rganib chiqishimizga vaqt kerak va...

ALBUS: Drako otamga ishonib. U uyaltirib qo`ymaydi.

Garry unga ko`ngli buzilib qaradi.

GERMIONA: Tayoqchalar.

Hamma o`z tayoqchalarini ko`taradi. Garry o`zinikini yashiradi.

Yorug`lik paydo bo`ladi – u vujudga kela boshlaydi, u aylanayapti...

Aylanish juda ham sekin va daxshatli bo`layotgan edi.

Garryning o`rnida Volan-de-Mortning sharpasi paydo bo`la boshlaydi.

U daxshat uyg`otardi.

U o`girildi.

U o`zining do`stlariga va oilasiga qaraydi.

Ular unga hayratlanib qarashadi.

RON: La`nati do`zax iti!

GARRY/ VOLAN-DE-MORT: Ish berdimi?

JINNI (vazmin ovozda): Ha ish berdi.

TO`RTINCHI AKT, O`N BIRINCHI SAXNA

GODRIK JARLIGIDA, AVLIYO JEREMI CHERKOVI, 1981-YIL

Ron, Germiona, Drako, Skorpilus va Albus deraza yonida turib sodir bo`lishi kerak bo`lgan voqealarni kuzatib turishardi. Jinni qaramasdi. Chekkada o`tirardi. Albus onasini aloxida o`tirganini sezib qoladi. U uni yoniga boradi.

ALBUS: Hammasi yaxshi bo`ladi, buni tushunasizku a, oyi?

JINNI: Tushunaman. O umid qilamanki, tushunaman. Men shunchaki... uni bunday ko`rinishda ko`rishni xoxlamayman. Men sevgan inson men yomon ko`rgan inson qiyofasida.

Albus onasini yoniga o`tiradi.

ALBUS: U menga yoqqan edi oyi. Tasavvur qilayapsizmi? U menga chindan ham yoqqan edi. Delfi. Va u shu vaqtgacha Volan-de-Mortning qizi bo`lganmi?

JINNI: Gap ular bunda juda ham yaxshiligida, Albus, ular aybsiz qurbonlarini o`z to`rlariga tushura oladilar.

ALBUS: Bularning hammasi mening aybim.

Jinni Albusni qo`lidan tutadi.

JINNI: Qiziq. Otang esa bularning bariga aynan o`zini aybdor deb hisoblayapti. Siz ikkingiz haqiqatdan ham g`alati juftliksizlar.

SKORPIUS: Ana u. U o`sha yerda. U uni payqadi.

GERMIONA: Joylarga. Hamma joylariga. Va esingizda bo`lsin u uni yorug`likka olib chiqmaguncha ko`rinish bermang, bizda bor yo`g`i bitta imkon bo`ladi va biz uni qo`ldan chiqara olmaymiz.

Ularning hammalari tezlashadi .

DRAKO: Germiona Grenjir, menga Germiona Grenjir buyruq berayapti. (Germiona o`g`irilib qaraydi, u kuladi). Bu menga deyarli yoqayapti.

SKORPIUS: Dada...

Ular u yerdan bu yerga yurishadi va asosiy ikki eshikning ortiga yashirinishadi.

GARRY/ VOLAN-DE-MORT cherkovga qaytadi. U bir necha qadam qo`yadi va ortiga o`giriladi.

GARRY/ VOLAN-DE-MORT: Jodugarmisan, afsungarmisan, lekin sen meni ortimdan kuzatayapsan va seni ishontirib aytishim mumkinki sen bundan afsuslanasan.

Delfi uning oldiga kiradi. U butunlay qat`iy. Bu uning otasi va bu daqiqani u yaralganidan beri kutardi.

DELFI: Lord Volan-de-Mort. Bu menman. Men sizni kuzatayapman.

GARRY/ VOLAN-DE-MORT: Men seni tanimayman. Meni tinch qo`y.

Uning nafas olishi tezlashadi.

DELFI: Men sizni qizingizman.

GARRY/ VOLAN-DE-MORT: Agar sen mening qizim bo`lganingda men sen haqingda bilgan bo`lar edim.

Delfi unga yolvorib qaradi.

DELFI: Men kelajakdanman. Sizni va Bellatriks Lestrenjning farzandingizman. Men Xogvarts uchun jangdan oldin Malfoylar Boshpanasida tug`ulganman. Siz mag`lubiyatga yuz tutadigan jangdan oldin. Men sizni qutqargani keldim.

GARRY/ VOLAN-DE-MORT o`giriladi. U uni ko`z qarashi bilan to`qnashadi.

Bu haqida menga Rudolfus Lestrenj, Bellatriksning qonuniy eri, Azkabandan qaytganida aytib bergan edi. U menga o`zi aytganiday amalga oshishi allaqachon xal qilingan bashoratni ham aytib bergan. Men sizning qizingizman, Janob.

GARRY/ VOLAN-DE-MORT: Men Bellatriks bilan tanishman va men siz

ikkingizning yuzingizda qandaydir o`xshashlikni ko`rayapman, sen undan ko`rinishini meros qilib olmagansan ham. Lekin isbotsiz...

Delfi ilon tilida gapirishni boshlaydi.

GARRY/ VOLAN-DE-MORT qattiq kulib yuboradi.

Va bu seni isbotingmi?

Delfi hech bir qiyinchiliksiz havoga ko`tariladi. GARRY/ VOLAN-DE-MORT hayratlanib ortga tisariladi.

DELFI: Men sizning Avgureyangizman, Yovuz Lord, va men sizga xizmat qilish uchun borimni berishga tayyorman.

GARRY/ VOLAN-DE-MORT (U hayratga tushganligini ko`rsatmaslikka harakat qiladi): Sen uchishni o`rganganmisan... menday?

DELFI: Men siz meros qoldirgan yo`ldan borishga harakat qilganman.

GARRY/ VOLAN-DE-MORT: Avval men bilan tenglashmoqchi bo`lgan hech bir jodugar, hech bir afsungarni uchratmagandim.

DELFI: Meni noto`g`ri tushunmang, men siz bilan tenglashmoqchi emasman, Milord. Men bolaligidan mendan faxrlanib yurishingizni orzu qilardim.

GARRY/ VOLAN-DE-MORT (gapini bo`lib): Men seni kimligingni ko`rayapman. Va kim bo`lishingni ham, qizim.

Delfi juda ta`sirlanib unga diqqat bilan qaradi.

DELFI: Ota?

GARRY/ VOLAN-DE-MORT: Biz ikkimiz birgalikda favqulotda katta kuch qudratga ega bo`lamiz.

DELFI: Ota...

GARRY/ VOLAN-DE-MORT: Yorug`likka yaqinroq kel, mening qonimdan nima yaralganini yaxshilab ko`ray.

DELFI: Sizning vazifangiz xato. Garry Potterga xujum qilish ham. U sizni yo`q qiladi.

GARRY/ VOLAN-DE-MORTning qo`li Garryning qo`liga aylanadi. Garry qo`liga hayrat va vaxima bilan qaraydi, keyin u tezda uni yengi ichiga yashirib oladi.

GARRY/ VOLAN-DE-MORT: U hali go`dakku.

DELFI: Lekin unda onasining muhabbat bor, sizning unga yo`llagan afsuningiz undan sapchib o`zingizga tegadi, sizni yo`q qiladi va uni qudratli sizni esa kuchsiz qilib qo`yadi. Siz qayta tiklanasiz lekin so`nggi o`n yetti yilni u bilan jang qilish bilan o`tkazasiz va bu jangda siz yutqizasiz.

GARRY/ VOLAN-DE-MORTning sochlari o`sa boshlaydi, u buni his qiladi va uni yashirishga shoshadi. U qaytarma qalpog`ini kiyib oladi.

GARRY/ VOLAN-DE-MORT: Unaqada men unga tajavvuz qilishim kerak emas ekan. Sen xaqsan.

DELFI: Ota?

GARRY/ VOLAN-DE-MORTning bo`yi pasayadi – endi u Volan-de-Mortdan ko`ra ko`proq Garryga o`xshab ko`rinardi. U Delfiga orqa o`girib oladi.

Ota?

GARRY (juda ham Volan-de-Mortday gapirishga harakat qiladi): Rejang yomon emas. Jang tugadi. Sen menga haqqoniy yordam qilding, endi yorug`likka yaqinroq kel, senga yaxshilab qarab olay.

Delfi eshik sekin ochilib yana yopilganini sezib qoladi. U bunga qoshini chimirib qo`yadi, tezda fahmlaydi, uning shubxalari ortadi.

Ota...

U yana bir bor uning yuziga qaramoqchi bo`ladi, illuziya asta sekin yo`qolib borardi.

Sen Lord Volan-de-Mort emassan.

Delfi unga yashin otadi. Garry ham unga xuddi shuni jo`natadi.

INSENDIO!

GARRY: INSENDIO!

Yashinlar xona o`rtasida chiroyli bo`lib to`qnashadi. Ikkinchi qo`li bilan u boshqa afsunni qolganlar eshikni ochishga harakat qilishidan oldin jo`natib qulflab qo`yadi.

DELFI: Potter! Kolloprtus!

Garry eshikka xavotir olib qarab qo`yadi.

Nima? Do`stlaring senga yordamga keladi deb o`ylayapsanmi?

GERMIONA (ichkaridan): Garry... Garry...

JINNI (ichkarida): U eshikni sen tarafdin qulflab qo`ydi.

GARRY: Ajoyib. Unaqada men seni o`zim yengar ekanmanda.

U Delfiga yana xujum qilishga harakat qilmoqchi edi. Lekin u undan kuchliroq edi. Garryning tayoqchasi unga uchib ketadi. U qurolsiz. U yordamsiz.

Qanday qilib...? Sen nima balosan?

DELFI: Men uzoq vaqt seni kuzatib yurdim, Garry Potter. Men seni otamga qaraganda yaxshiroq bilaman.

GARRY: Sen meni barcha kuchsiz tomonlarimni bilaman deb o`ylaysanmi?

DELFI: Men unga mos bo`lishga o`rgandim! Ha hech narsaga qaramay u avvalgiday hamma vaqtlarning eng buyuk sexrgari, u men bilan faxrlangan bo`lardi. Ekspulso!

Garry uning ortidagi pol portlab ketishidan oldin o`zini boshqa tomonga otdi. U jadal cherkov skameykasi ostiga o`rmalab kiradi, endi u uni qanday yengish rejasini tuzishga harakat qilardi.

Sen mendan yashirinayabsanmi? Garry Potter. Sexrgarlik olami qahramoni. Burchakda yo`qolib qoldi, kalamushday. Vingardium Levioza!

Cherkov skameykasi havoga ko`tariladi.

Meni faqat bir savol qiynayabdi, nega endi men juda oz vaqtdan keyin otamni to`xtatishimni va seni o`lishing kafolatlanishini balsam ham o`ldirish uchun vaqtimni zoye ketkizayapman. Qaysi birini tanlasam ekan? O bu juda zerikarli, men shunchaki seni o`ldiraman.

U skameykani to`g`ri unga uloqtiradi. Oxirgi daqiqalarda u o`rmalab qochishga ulguradi va skameyka bo`laklarga bo`linib ketadi.

Albus pol ostidagi lyukdan bildirmasdan chiqadi. Na unisi, na bunisi uni payqashmaydi.

Avada...

ALBUS: Ota...

GARRY: Albus! Yo`q!

DELFI: Ana endi ikkitasizlarmi? Nima qilish kerak, nima qilish kerak. O`ylashimcha bolakayni birinchi o`ldiraman. Avada Kedavra!

U Albusga o`ldiruvchi afsunni yo`llaydi, lekin Garry uni vaqtida itarib yuborishga ulguradi. Yashin polga yetadi. Garry ham bunga javoban afsun yo`llaydi.

O`ylashingcha mendan kuchlimisan?

GARRY: Yo`q. Menmi yo`q.

Ular bir biriga Albus tezda yugurib avval birinchi eshikdagi keyin esa ikkinchi eshikdagi afsunni bekor qilayotganda, armonsiz afsun qo`llashni davom ettirishar edi.

Lekin biz qo`rqmaymiz.

Albus tayoqchasi yordamida eshiklarni ochadi.

ALBUS: Alojomora! Alojomora!

GARRY: Ko`rayapsanmi, men hech qachon yolg`iz jang qilmaganman. Va men hech qachon yolg`iz jang qilmayman ham.

Germiona, Ron, Jinni va Drako eshikda paydo bo`lishadi va darg`azab baqirayotgan Delfiga qarata afsun yog`dirishardi. Ular juda ham kuchli edi. Lekin u ularning hammasi bilan bir vaqtning o`zida jang qila olmaydi.

Navbatdagi portlash bo`ladi va karaxt bo`lib qolgan Delfi yerga yiqiladi.

DELFI: Yo`q... Yo`q...

GERMIONA: Braxiabindo!

U bo`g`lanib qoladi.

Garry Delfiga yaqinlashadi. U undan ko`zini uzmaydi. Qolgan barcha bir chekkada turadi.

GARRY: Albus axvoling yaxshimi?

ALBUS: Ha dada. Men yaxshiman.

Garry avvalgiday Delfidan ko`zini uzmaydi. U hali ham uni qo`rqitayotgan edi.

GARRY: Jinni, unga ziyon yetmaganmi? Men uni xavfsizlikda ekanligini bilishim kerak...

JINNI: U buni qilaman deb turib oldi. U bu panjaradan o`ta oladigan yagona odam

edi. Men uni to`xtatib qolishga harakat qildim.

GARRY: Menga shunchaki u yaxshi deb ayt.

ALBUS: Men yaxshiman, dada. Qasam ichaman.

Garry Delfiga yaqinlashishni davom etar edi.

GARRY: Ko`pchilik odamlar menga ziyon yetkazishga harakat qilishgan, lekin bu mening o`g`lim! Sen mening o`g`limga zarar keltirishga harakat qilding!

DELFI: Men shunchaki otam bilan birga bo`lishni xoxlagan edim.

Bu so`zlar Garryni hayron qoldiradi.

GARRY: Sen o`z hayotingni o`zgartira olmaysan. Sen har doim yetimligingcha qolasan. Bu seni hech qachon tark etmaydi.

DELFI: Shunchaki menga uni.... Ko`rishga ruxsat ber.

GARRY: Men unday qila olmayman va xoxlamayman ham.

DELFI (nihoyatda ayanchi ahvolda): Unda o`ldir meni.

Garry bir laxza o`ylanib qoladi.

GARRY: Buni ham qilmayman...

ALBUS: Nima? Dada? U xavfli.

GARRY: Yo`q Albus..

ALBUS: Lekin u qotil... men uni qanday o`ldirganini ko`rdim...

Garry ortiga o`giriladi, avval o`g`liga keyin Jinnaga qaraydi.

GARRY: Ha Albus. U qotil. Lekin biz emas.

GERMIONA: Biz undan yuqori turamiz.

RON: Axa, bu asabingga tegadi, lekin bu biz yaxshi o`zlashtirgan dars.

DELFI: Meni xotiramni o`chirib tashlang. Mening barcha xotiralarimni oling. Menga kimligimni unutishga yo`l bering.

RON: Yo`q seni yana ortga o`zimizning zamonga qaytaramiz.

GERMIONA: Va sen Azkabanga jo`natilasan. Xuddi onang qachonlardir jo`natilganday.

DRAKO: Qayerdagi sen chirib o`ladigan joyga.

Garry qandaydir ovozni eshitadi. Bu shivirlash edi. Keyin bu ovoz avvalgidan ham daxshatli tarzga aylanadi.

Gaaarri Pottttter...

SKORPIUS: Nima bu?

GARRY: Yo`q. yo`q. Faqat hozir emas.

ALBUS: Nima?

RON: Volan-de-Mort.

DELFI: Otam?

GERMIONA: Qanday? Qayerda?

DELFI: Ota.

DRAKO: Silensio! (Bu Delfini jim bo`lishga majbur qiladi). Vingardium Levioza! (u yuqoriga ko`tariladi va yonga o`tadi).

GARRY: U yaqinlashayabdi. U hozir bu yerda bo`ladi.

Volan-de-Mort saxnaning oxirida paydo bo`ladi, uni kesib o`tib zalga tushadi. U ajalni yetaklab kelar edi. Va buni hamma bilardi.

TO`RTINCHI AKT, O`N IKKINCHI SAXNA

GODRIK JARLIGIDA, 1981-YIL

Garry kuchsizlanib Volan-de-Mortning ortidan kuzatib qoladi.

GARRY: Volan-de-Mort mening ota-onamni o`ldirgani ketayabdi men esa uni to`xtatish uchun hech narsa qila olmayman.

DRAKO: Unday emas.

SKORPIUS: Dada, hozir vaqti emas...

ALBUS: Siz uni to`xtatish uchun nimadir qila olasiz. Lekin unday qilmaysiz.

DRAKO: Bu qahramonona ish bo`ladi.

Jinni Garryning qo`lini ushlaydi.

JINNI: Sen bunga qarashing shart emas, Garry. Biz uyga qaytishimiz mumkin.

GARRY: Men buni sodir bo`lishiga qo`yib beraman.... Albatta men buni ko`rishim kerak.

GERMIONA: Unda biz hammamiz bunga guvoh bo`lamiz.

RON: Biz hammamiz buni ko`ramiz.

Biz notanish ovozni eshitamiz...

JEYMIS (allaqayerdan): Lily Garryni ol va qoch! Bu o`sha! Qochinglar! Tezroq! Men uni ushlab tu...

Gumburlash eshitaladi, keyin esa kulgu.

Yaqinlashma tushundingmi? Yaqinlashma.

VOLAN-DE-MORT (allaqayerdan): Avada Kedavra!

Garry mexmonxonani yashil yog`du yoritib yuborganida titrab ketadi.

Akbus uni qo`lini ushlaydi. Garry uni qattiq qisadi. Hozir bu unga kerak.

ALBUS: U qo`lidan kelganini qildi.

Jinni uning yaqiniga keladi va Garryning ikkinchi qo`lini ushlaydi. U ularga suyanadi, endi ular uni ushlab turishibdi.

GARRY: Deraza ortidagi bu mening onam. Men o`z onamni ko`rayapman, u juda ham chiroyli.

Daxshatli qasir qusur va eshik urib tushiriladi.

LILY (allaqayerdan): Faqat Garryni emas, Garry emas, iltimos faqat Garryni emas...

VOLAN-DE-MORT (allaqayerdan): Yo`ldan qoch axmoq qiz.... Qoch, hoziroq...

LILY (allaqayerdan): Garryni emas, Iltimos yo`q, Meni oling. Meni o`rniga o`ldi....

VOLAN-DE-MORT (allaqayerdan): Bu meni so`nggi ogohlantirishim...

LILY (allaqayerdan): Faqat Garryni emas! Iltimos... rahm qiling... shavqat qiling... faqat mening o`g`limni emas! Yolvoraman, nima desangiz qilaman.

VOLAN-DE-MORT (allaqayerdan): Avada Kedavra!

Garryning tanasi yashindan yana titrab ketadi. U daxshatli alamu qayg`u bilan

polga o`tirib qoladi.

Atrofimizda bo`g`iq ovoz eshitiladi, goh pasayadi goh balandlashadi.

Biz esa shunchaki tomosha qilardik.

Va sekin asta biz ko`rayotganlar yo`qola boshlaydi.

Saxna esa qiyofasini o`zgartiradi va aylanadi.

Garry, oilasi va do`stlari birgalikda u bilan o`girilishadi, keyin esa yo`q bo`lishadi.

TO`RTINCHI AKT, O`N UCHINCHI SAXNA

GODRIK JARLIGIDA, JEYMIS VA LILY POTTERLAR UYIDA, 1981-YIL

Biz uyning xarobasida paydo bo`lamiz. Daxshatli hujum bo`lgan uyga. Xagrid xarobalar orqali kirib keladi.

XAGRID: Jeymis?

U atrofqa qaraydi.

Lily?

U tezda ko`radigan narsalarini ko`rishni xoxlamay juda sekin yuradi. U karaxt bo`lib qolgan edi.

Keyin u ularni ko`radi, to`xtab qoladi va bironta ham so`z aytmaydi.

Ox. Ox. Bu... Bu... men ishonmagan.... Ular menga aytishgan edi, lekin.... Men yaxshilikka umid qilgan edim.

U ularga qarab boshini sarak sarak qilardi. U bir nimalarni g`o`ldirab o`zining chuqur kistasidan so`ligan guldasta chiqaradi va uni yerga qo`yadi.

Afsusdaman ular menga aytishgan ediya, u menga aygan ediya, Dambldor memnga aytgan edi, men bu yerda qola olmayman. Bu yerga magllar yaqinlashayabdi, ko`rdingizmi, ushbu ko`k chaqnash bilan va bunaqa baquvvat odamni ko`rishsa xursand bo`lishmasliklari aniq, to`g`ri aytayapmanmi?

U xiqqilab yig`lay boshlaydi.

Lekin sizlarni bu yerda qoldirish juda og'ir.

Men sizlar bilishingizni xoxlardimki: sizlarni unutishmaydi.... Men ham, boshqalar ham.

Keyin u bolaning pishshilashini eshitadi. Xagrid yon tomoniga ovoz kelayotgan tomoniga qarab o'giriladi va avvalgidan tezroq yuradi. U pastga qaraydi va yorug'lik taratayotgan belanchak yonida to'xtaydi.

Xo'sh. Bu. Salom. Sen Garry bo'lsang kerak?

Salom Garry Potter.

Men Rubeus Xagridman.

Senga yoqadimi yo'qmi men endi sening do'sting bo'laman.

Sen uddalading, xali o'zingni xabaring bo'lmasa ham.

Va senga do'st kerak bo'ladi.

Endi esa men bilan ketganing yaxshiroq, nima deb o'ylaysan?

Moviy yog'du xonani g'ayritabiiy porlatib yuboradi – ehtiyotkorlik bilan KICHKINA GARRYni qo'liga oladi. Keyin esa atrofga qaramasdan katta katta qadamlar bilan uyni tark etadi.

Va hamma joyga ohista zulmat cho'kadi.

TO`RTINCHI AKT, O`N TO`RTINCHI SAXNA

XOGVARTS, SINFXONADA

Skorpius va Albus hayratlanib xonaga yugurib kirishadi. Eshikni o'zlaridan keyin taraqlatib yopib qo'yishadi.

SKORPIUS: Hali ham buni qilganimga ishongim kelmayapti.

ALBUS: Men ham haligacha buni qilganingga ishonmayman.

SKORPIUS: Roza Grenjir Uizli. Men Roza Grenjir Uizlini uchrashuvga taklif qildim.

ALBUS: Va u "Yo'q" dedi.

SKORPIUS: Lekin men uni taklif qildim. Men urug` qadadim, bizning bo`lajak to`yimizda o`sib unadigan.

ALBUS: Sen ertak yozishing kerak shuni bilasanmi?

SKORPIUS: Va men seni fikringa qo`shilgan bo`lar edim, faqatgina Polly Chapmanning shaxsan o`zi meni bazmga taklif qilga edi...

ALBUS: Sen o`zga dunyoda qizlar seni bazmlarga taklif qilishi borasida bundan ham mashxurroq eding va bu aglatishi kerakki...

SKORPIUS: Shuning uchun men mantiqan Pollyga xushomad qilishim kerak yoki u menga xushomad qilishiga qo`yib berishim kerak, u o`ta darajada go`zalk u.... Lekin Roza bu Roza.

ALBUS: Sening mantiqing sen axmoq ekanligingni aytmayabdimi? Roza seni yoqtirmaydiku.

SKORPIUS: To`g`irlab qo`yay: u avval meni yoqtirmas edi, lekin uni taklif qilganimda uni ko`zlarini ko`rdingmi? Bu umuman nafrat emas bu afsuslanish edi.

ALBUS: Afsuslanish yaxshmi?

SKORPIUS: Afsuslanish bu boshlanishi, mening do`stim. Bu bizning qasrimizning poydevori, muhabbat qasrimizning poydevori.

ALBUS: To`g`risi shundaki, ikkalamiz ichimizda birinchi bo`lib meni qiz o`rtog`im bo`lgan.

SKORPIUS: O, albatta, shubxasiz. Yangi kulrang ko`zli sexrli damlamalar professori haqida nima deysan? U senga yetarlicha katta, shundaymi?

ALBUS: Menga umuman katta yoshli ayollar yoqmaydi!

SKORPIUS: Uni yo`ldan ozdirishing uchun hali ko`p, juda ko`p vaqting bo`ladi. Chunki men hali Rozani rozi qilish uchun ortidan ancha yuraman.

ALBUS: Men seni qat`iyligingdan qoyil qolayapman.

Ularning ortidagi zinada Roza paydo bo`ladi. U bolalarga qaraydi.

ROZA: Salom.

Unisi ham bunisi ham nima deb javob berishni bilishmaydi. U Skorpiusga qaraydi.

Agar bu g`alati ko`rinayotgan bo`lsa buning barchasiga sen aybdorsan.

SKORPIUS: Qabul qilindi va butunlayicha tushunarli bo`ldi.

ROZA: Bo`pti unda “Chayonlar Qiroli”.

U yuzida tabassum bilan ketadi. Skorpion va Albus bir biriga qarab qolishadi. Albus miyig`ida kulib qo`yadi va Skorpionni qo`li bilan turtib qo`yadi.

ALBUS: Balkim sen haqdirsan: afsuslanish boshlanishidir.

SKORPIUS: Kvidishga borasanmi? Slizirin Huffelpufga qarshi, muhim o`yin.

ALBUS: Men kvidishni yomin ko`ramiz deb o`ylagandim.

SKORPIUS: Odamlar o`zgaradi. Ha aytgancha men ozgina mashq qildim. Qachondir jamoaga qabul qilishadi deb o`ylayman. Ketdik.

ALBUS: Ilojim yo`q. Dadam bilan uchrashuvim bor...

SKORPIUS: U Vazirlikdan dam olayaptimi?

ALBUS: U aylanishni xoxlayapti va menga nimadir ko`rsatib nima bilandir bo`lishmoqchi.

SKORPIUS: Aylanish?

ALBUS: Axa, o`ylashimcha bu qadaydir ko`ngilni aynitadigan yoki qandaydir be`mani narsa bo`lsa kerak. Lekin meningcha borishim kerak.

Skorpion qo`li bilan Albusni turtadi va uni quchadi.

Senga nima qildi? Meningcha biz quchoqlashmaymiz deb kelishgan edik.

SKORPIUS: Men amin bo`lmagan edim. Balkim shunga arzir. Men o`z qarashlarimni o`zgartirdim.

ALBUS: Undan ko`ra Rozadan so`rasang yaxshiroq bo`lar edi, u qarshi bo`lmasmikan.

SKORPIUS: Xa! Ha albatta.

Bolalar bir biridan ajrashishadi va bir biriga qarab miyig`ida kulib qo`yishadi.

ALBUS: Tushlikda ko`rishamiz.

TO`RTINCHI AKT, O`N BESHINCHI SAXNA

AJOYIB TEPALIKDA

Garry va Albus ajoyib yozning bir kunida tepalikka tirmashib chiqishardi. Ular bir og`iz ham so`zlashishmas, tepalikka ko`tarilayotganlarida yuzlarini qizdirayotgan quyoshdan rohatlanishardi.

GARRY: Xo`sh tayyormisan?

ALBUS: Nimaga?

GARRY: Oldinda to`rtinchi sinfdan keying imtihonlar keyin esa beshinchi sinf – muhim yil, beshinchi sinfligimda...

U Albusga qaraydi. U tabassum qiladi. U shoshilib gapiradi.

Men olamdagi bor narsalarni qilganman. Ozgina yaxshi. Ozgina yomon. Juda ham ko`p shubxali xatti harakatlarni.

ALBUS: Eshitganimdan xursandman.

Garry kuladi.

Sizni ota – onangizni ozgina vaqt kuzatib turish meni juda ham baxtli qildi. Ular ... siz ular bilan baxtli edingiz. Sizing otangiz siz bilan tutunning aylanasini qilishni yoqtirar edi, siz esa.... Umuman siz to`xtamasdan handon otardingiz.

GARRY: Yo`g`e?

ALBUS: O`ylashimcha ular sizga yoqqan bo`lishar edi. O`ylashimcha Lily va Jeymis bilan ham ularni yoqtirib qolgan bo`lar edik.

Garry bosh irg`itadi. Noqulay jimlik cho`kadi. Ikkisi ham yaqinlashishga harakat qilishar lekin ikkisini ham bu qo`lidan kelmayotgan edi.

GARRY: Bilasanmi, men undan xalos bo`lganman, Volan-de-Mortdan xalos bo`lganman deb o`ylardim, men undan qutuldim deb ... Birdan chandig`im og`riy boshladi va u meni tushlarimga qaytdi. Men yana ilonlar tilida gapira boshlagan edim va nazarimda men hech qanday o`zgarmagan, u meni hech qachon tark etmaydi deb o`ylagan edim...

ALBUS: Endi chindan ham tark etdimi?

GARRY: Meni ichimda yashagan Volan-de-Mortning bo`lakchasi yakson bo`lganiga ancha bo`lgan, lekin undan jismonan qutilganim yetarlicha bo`lmagan ekan, men uni o`z idrokimdan haydashim kerak bo`lgan ekan. Bu esa qirq yoshli

erkak uchun juda ham ko`plik qiladi.

U Albusga qaraydi.

Men senga aytganlarim kechirilmas va men uni unutib meni kechirishingni so`rashga haqqim ham yo`q, lekin men ularni o`tmishda qoldirishimizga umid qilishga jur`at qildim. Men senga yaxshi ota bo`lishga harakat qilaman, Albus. men harakat qilaman: men senga xolis bo`lishga va...

ALBUS: Dada sizga shart emas...

GARRY: Sen menga meni nimadandir qo`rqadi deb o`ylamasligingni aytgan eding. Umuman olganda men hamma narsadan qo`rqaman. Masalan men qorong`ulikdan qo`rqaman, bu haqida bilarmiding?

ALBUS: Garry Potter qorong`ulikdan qo`rqadi?

GARRY: Men kichkina joylarni yoqtirmayman va bu haqida hech qachon aytmaganman, men unchalik (buni aytishdan oldin taraddudlanib oladi) kabutarlarni yoqtirmayman.

ALBUS: Siz kabutarlarni yoqtirmaysizmi?

GARRY (tishini g`ichirlatib): Yoqimsiz, cho`qib yeydigan, irkit jonzot. Etim jimirlab ketadi ulardan.

ALBUS: Lekin kabutarlar beozorku!

GARRY: Bilaman. Lekin meni hammasidan ham qo`rqitadiganni Albus Severus Potter, sening otang bo`lish. Chunki men bu yerda sug`urtasiz ishlayman. Ko`p odamlarning hech bo`lmasa na`muna oladigan otasi bo`ladi, ularga o`xshashga yo harakat qilishadi yoki yo`q. Meni esa hech narsam yo`q yoki juda oz. Shunday ekan men o`rganaman, yaxshimi? Va men bor imkoniyatimni senga yaxshi ota bo`lish uchun sarf etaman.

ALBUS: Men esa harakat qilaman va yaxshi o`g`il bo`laman. Men Jeymis emasligimni bilaman, dada, men hech qachon ikkingizdek bo`lmasligimni ham bilaman...

GARRY: Jeymis umuman menga o`xshamaydi.

ALBUS: Umuman?

GARRY: Jeymis hamma narsaga oson erishgan. Meni bolaligim esa butunlay kurash bilan o`tgan.

ALBUS: Xuddi menikiday. Ya`ni meni sizga o`xshashimga shama qilayapsizmi?

Garry Albusga tabassum qiladi.

GARRY: Ayni vaqtda sen ko`proq onangga o`xshaysan – mard, matonatli, quvnoq men oyingda yoqtirgan xislatlar, qaysiki seni juda ham loyiq o`g`il qiladigan.

ALBUS: Men dunyoni yo`q qilib yuborishimga sal qoldi.

GARRY: Delfi hech narsa qilmoqchi emas edi, (U panada qolib ketishi mumkinligiga ishora qilayapti) Albus, sen faqat uni yorug`likka olib chiqding va uni yakson qilish yo`lini aytding. Sen buni hozir payqamasliging mumkin lekin sen bizni qutqarding.

ALBUS: Men yaxshiroq yo`lini tanlashim mumkinmasmidi?

GARRY: Men ham o`zimga shu savolni bergan ekanligim haqida o`ylab ko`rmaganmisan?

ALBUS (u otasi bunday yo`l tutmagan bo`lishini tushunadi): Keyinchalik uni ushlaganimizda men uni o`ldirishni xoxlagan edim.

GARRY: Sen u Kreygni qanday o`ldirganini ko`rgansan va alamda bo`lgansan, Albus, va bu oddiy holat. Lekin sen buni qilmagan bo`lar eding.

ALBUS: Nimaga bunday ishonch bilan gapirayapsiz? Balkim bu meni Slizirincha 20021997 tomonim bo`lishi mumkindir. Balkim bu Saralovchi Shlyapa menda ko`rgan narsadir.

GARRY: Men seni miyangda nimalar aylanib yurganini bilmayman, Albus, umuman bilasanmi sen o`spirinsan va men bu paytda nimalar sodir bo`layotganini tushunmasligim mumkin, lekin men seni qalbingda nimalar bo`lishini bilaman. Men uzoq vaqt davomida tushunmagandim lekin bu “xatarli sarguzasht” sharofati bilan seni ichingda nima borligini bildim. Slizirinmi yoki Griffindor yorlig`ini qaysini senga ilishmasin men ishonaman – ishonamanki senda pok qalb, toza yurak borligiga. Ha senga yoqadimi yoki yo`q sen ko`zga ko`ringan sexrgar bo`lish yo`lidasan.

ALBUS: O men sexrgar bo`lmoqchi emasman, men kabutarlar poygasiga qiziqaman. Bu meni o`ziga maftun qiladi.

Garry tirjayib qo`yadi.

GARRY: Senga qo`yilgan ismlar – senga yuk bo`lmasligi kerak. Bilasan Albus Damldor ko`pgina sinovlardan o`tgan, Severus Sneyp ham.... Xo`sh ular haqida

hamma narsani bilasan....

ALBUS: Ular yaxshi odam bo`lishgan.

GARRY: Ular katta nuqsonlari bo`lgan juda ham ajoyib odamlar bo`lishgan va bu nuqsonlar ularni yana ham buyuk qilgan.

Albus atrofga qaraydi.

ALBUS: Dada? Nimaga biz bu yerdamiz?

GARRY: Men tez-tez bu yerga kelib turaman.

ALBUS: Lekin bu qabr...

GARRY: Va bu yerda Sedrikning qabri joylashgan.

ALBUS: Dada?

GARRY: O`ldirilgan yigitchachi, Kreyg Bouker, sen uni qanchalik yaxshi bilasan?

ALBUS: Yetarlicha yaxshi bilmas edim.

GARRY: Men ham Sedrikni yetarlicha yaxshi bilmasdim. U balkim Angliya terma jamoasida kvidish o`ynashi mumkin edi. Yoki zo`r avror bo`lishi mumkin edi. U har kim bo`lishi mumkin edi. Amos haq: uni o`g`irlashdi. Shuning uchun men bu yerga kelib turaman. Shunchaki kechirim so`rash uchun. Qachon kela olsam.

ALBUS: Bu siz tomoningizdan qilingan juda ham yaxshi ish.

Albus Sedrikning qabri yaqinidagi otasining yoniga keladi. Garry o`g`liga tabassum qiladi va osmonga qaraydi.

GARRY: O`ylashimcha bugun juda yaxshi kun bo`ladi.

U qo`lini o`g`lining yelkasiga qo`yadi. Ikkisi ham sezilar sezilmas birlikni his qilishadi.

ALBUS (tabassum bilan): Men ham shunday deb o`ylayman.

TARJIMON: Yulduz Boymatova

@GARRIPOTTER8

@Dumbledore_army01

